

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Namangan Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti

4-kurs 401-guruh talabasi

BOBOXO'JAYEVA MUATTARning

“NURIDDIN BOBOXO'JAYEV

ASARLARIDA INSON RUHIYATI TASVIRI ”

mavzusida yozgan

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

M.Sobirova

Namangan -201

Ushbu bitiruv malakaviy ishi “Nuriddin Boboxo`jayeve asarlarida inson ruhiyati tasviri” mavzusidagi ishni 401-guruh talabasi Boboxo`jayeve Muattar bajargan. Ishda Nuriddin Boboxo`jayeve asarlari inson ruhiyati dalillar asosida yoritilgan.

**MAVZU: NURIDDIN BOBOXO`JAYEV
ASARLARIDA INSON RUHIYATI TASVIRI**

REJA:

So`z boshi.

I. Bob. Nuriddin Boboxo`jayeve hayot yo`li va ijodida lirik qahramon tasviri:

- 1.1. Nuriddin Boboxo`jayeve hayot yo`li.
- 1.2. Shoir she`rlarida lirik qahramon tasviri:
 - a) ota timsoli;
 - b) ona timsoli;
 - v) ustoz timsoli;
 - g) yor timsoli.

II. Bob. Ijodkor asarlarida ezgulikning kuylanishi:

- 2.1 Nuriddin Boboxo`jayeve – samimiy do`stlik kuychisi.
- 2.2 Nasriy asarlarida qahramonning ma`naviy qiyofasi.

III. Bob. Ijodkorning o`ziga xos mahorati:

- 3.1 Nuriddin Boboxo`jayeve – dramaturg.
- 3.2 “Madaminbek” dramasi ilgari surilgan g`oyalar.
- 3.3 Nuriddin Boboxo`jayeve zamondoshlari ta`rifida.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

So`z boshi

Mavzuning dolzarbligi.

Inson ma`naviyatini shakllantirish, uning dunyoqarashini o`stirish, yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ustozlarning o`rnini hech narsa bilan qiyoslab bo`lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov: “Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo`l, avvalo, ta`lim – tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo`lgan yana bir buyuk zot – o`qituvchi va murabbiylarning oliy janob mehnatlarini hurmat bilan tilga olamiz”.¹

Ustoz! Dunyoda undan ham ma`nan etuk, ahloqan barkamol, omma o`rtasida tan olingan, ehtiromga sazovor inson bormi?! Uning bilim daryosidan ne-ne zotlar suv ichganlar, tashnaligini qondirganlar. Ustozday buyuk dahoning xizmatlari, to`g`ri yo`l ko`rsatishlari tufayli jamiyatda yuksak mavqe, obro`-e`tibor, mashhurlik pillapoyalaridan yuksalikka ko`tarilganlar. Ularning kamolga etishlarida ustozlarning o`rni so`z bilan ifodalab bo`lmaydigan darajada beqiyosdir. Ushbu ta`rif Namangan Davlat universitetida faoliyat ko`rsatgan ko`pgina aziz va mukarram, tabarruk va nuqtadon ustozlarimizga ham tegishli. Ularning sa`i-harakatlari, sidqidildan qilgan mehnatlari tufayli ko`plab shogirdlar mamlakat miqyosida etuk va mashhur insonlar darajasiga ko`tarila oldilar. El e`tirofiga sazovor bo`ldilar. Bu aziz ustozlarimiz bugungi kunda doimo shogirdlari yodida. Ularni ulug`lash, xotirlash mas`uliyatli burch ekanini mudom unutmaydilar.

Prezidentimiz Islom Karimovning: “O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q”, - degan fikrlarini kishilik tarixi ko`p bora isbotlagan. Biz – bugungi yosh avlod hech qachon kechagi kunimizni, ota-bobolarimizning chekkan zahmatlarini, diyorimiz mustaqillikka erishguncha bosib o`tgan mashaqqatli yo`llarini o`rganishga, ular nomini doimo yod olishga burchlimiz².

Bunday tabarruk ustozlar safidan munosib o`rin egallagan Fazliddin G`afforov, Boyqo`zi Turdialiyev, Mirsalim Sharipov, Salohiddin Jamolov, Abdurashid Munavvarov, Tojiboy G`oziboyev, Dadaxon Eshondadayev, Oliyaxon G`afforova, San`atxon Akmalova, O`g`ilxon Azimova, Klara Jumaboyeva, Mirxon Haydarov, Tojiddin Akramov, Odiljon Nosirov, Muhammadjon Iminov, Alixon Xalilbekov, Tursunboy No`monov, Ikromiddin Sirojiddinov kabi olimlarimiz, shubhasiz, ilm – fan darg`alari edilar. Ularning ko`plari boqiylikda bo`lsalar, ba`zilari hozir ham qimmatli maslahatlari bilan fan rivojiga hissa qo`shmoqdalar. Shunday ustozlarimizdan biri Nuriddin Boboxo`jayev bo`lib, ilm – fan rivojida va adabiyot taraqqiyotida o`ziga hos o`ringa egadir. Hammamiz uchun hurmatli bo`lgan Prezidentimiz Islom Karimov “Bu yorug` olamda eng buyuk jasorat nima degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma`naviy jasorati, deb javob bersak, o`ylaymanki, yanglishmagan bo`lamiz”³ – degan edilar. Yashar ekan, mexnat qilar ekan, o`z kasbiga, o`z Vataniga va xalqiga sadoqatda bo`lib, unga xizmat qilishini o`z burchi deb bilmog`i kerak. Kasbga bo`lgan fidoiylik zamirida xalqqa, Vatanga bo`lgan cheksiz hurmat va burch ma`suliyati yotadi.

Nuriddin Boboxo`jayev haqida gap ketganda, unga bugungi kun nuqtai nazari bilan baho berilganda, uning o`z burchini sidqidildan anglaydigan, mas`uliyatli inson ekanliklariga amin bo`lamiz.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov “Vatan tuyg`usi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok va ulug` bo`lmog`i kerak”⁴ deb ta`kidlagan. Yurtboshimizning ushbu mo``tabar fikrlarini keltirishimizdan murod shuki, Nuriddin Boboxo`jayev o`z yurtini – Vatanini chinakam sevgan insonlar qatorida edi. Uning ijodida nafaqat ona O`zbekiston, balki Farg`ona vodiysining betakror tabiati, xushxulq eli ham tarovatli misralarda kuylagan. Ayniqsa, u o`z viloyati Namanganni ko`p bor qalamiga olgan edi. Shu o`rinda yana muhtaram Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirish o`rinli dey o`ylaymiz:

¹ Каримов И.А. “Юксак маънавият- энгилмас куч”. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 130 б.

² www.ziyonet.uz.

³ Каримов И.А. “Юксак маънавият- энгилмас куч”. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 160 б.

⁴ И.А.Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Тошкент – “Ўзбекистон” нашриёти, 1996 й. 82-бет.

“Vatanimizdagi har bir viloyat, tuman, har qaysi shahar-qishloq - barchasining o`ziga xos qiyofasi, fayzu tarovati bor”¹.

Nuriddin Boboxo`jayev ijodida Namanganni ko`p bora ulug`lash bejiz emas edi. U yosh avlodda avvalo tug`ilib o`sgan zaminga, ona qishlog`i, shahri, viloyatiga nisbatan mehr uyg`otishni ko`zlagan edi. Ana shu mehr zamirida butun Vatanga bo`lgan mehr shakllanib borishi shubhasizdir. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so`zlari naqadar to`g`ri ekanligi o`tgan yillar ko`rsatib turibdi: “Biz farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog`lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta`bir joiz bo`lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”².

Nuriddin Boboxo`jayevning adabiy merosining badiiy qimmatini darajasi qanday bo`lishidan qat`iy nazar, uning o`tgan asrning 60-80 yillarida Namangan adabiy muhitida tutgan o`rni salmoqli bo`lganligi sababli o`rganishga loyiqdir. Nuriddin Boboxo`jayev ezgulikni, insonparvarlikni, ilm o`rganishni, Vatan oldidagi burchni anglay ola bilishni targ`ib etgan ijodkor ekani biz uchun juda-juda muhimdir. Yurtboshimiz ta`kidlaganlaridek: “O`z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi albatta porloq bo`ladi”³.

Xalqimizning ajoyib naqli bor: “Yomonning yaxshisi bo`lguncha, yaxshining yomoni bo`l”⁴. Darhaqiqat, ustozimiz Nuriddin Boboxo`jayev umri davomida eng etuk insonlar sari talpindi. Ularning mehriyosidan bahramand bo`lishga intildi, zakiy zotlar davrasida bo`layotgan suhbatlardan ozuqa oldi, adabiyotimizni sir – asrorlarini bilmoq umidida izlandi, jahon adabiyoti durdonalari bo`lmish – Rene Shar, Uolt Uitmen, Robert Byorns, Imant Ziedonis, Egishe Charents, Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov, Fyodor Tyotchev, Aleksandr Blok, Anton Chexov, Onore de Bal`zak, Gi de Mopassan, Aleksandr Dyuma, Fyodor Dostoevskiy, Mixail Bulgakov, Gabriel Garsia, Markes, Artur Konan Doyl, Lev Tolstoy, Vil`yam Shekspir, Mark Tven kabi buyuk ijodkorlar asarlarini o`rgandi. Shu bilan birga xalqimizning faxru g`ururiga aylangan yozuvchi-shoirlarimiz ijodini muntazam targ`ib etdi. Ular asarlarining tadqiqotchisiga aylandi! Olimning XX asr o`zbek adabiyotining ulkan chinorlari bo`lmish Hamza, Cho`lpon, Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, G`afur G`ulom, Zulfiya, erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ijodi yuzasidan bildirgan qimmatli ilmiy fikr – mulohazalari, xulosalari bugungi kunda ham o`z qadrini yo`qotgani yo`q. Mana shu jihatdan ham tanlangan mavzu **dolzarblik** kasb etadi.

Tanlangan mavzuning maqsad va vazifalari

Nuriddin Boboxo`jayev kechayotgan adabiy jarayonga biror marta befarq munosabatda emas edi. Uning fikrlari bahs – munozaraga aylanar, adabiy jamoatchilik tomonidan qizg`in kutib olinar edi. Xususan, Namangan adabiy muhitida Nuriddin Boboxo`jayev XX asrning 50-70 yillarida peshqadam ijodkor e`tiboriga she`r, g`azal, doston, hikoya, drama hamda publitsistik asarlar va maqolalarni havola etdi. Nafaqat namanganliklar, shu bilan birga respublikamizning eng mashhur ijodkorlari Shuhrat, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, G`afur G`ulom, Zulfiya, Abdulla Qahhor, Uyg`un, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Turob To`la, Mirzakalon Ismoiliy, Sharof Rashidov, Zohidjon Obidov, Po`lat Mo`min, Turg`un Po`lat, Rauf Parfi, O`tkir Hoshimov, Oydin Hojjeva, erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar ham uni e`tirof etishgan va uning ijodi yuzasidan fikr bildirganlar. Namangan adabiy muhitining taniqli ijodkorlari Habib Sa`dulla, ermamat Nurmatov, Ahmad Tursun, Yoqubjon Ahmadjonov, Abdulla Jabbor, Dilbar Haydarova, Sanobar Hasanova, Ziyoviddin Mansurov kabi ijodkorlar uni bevosita o`zlariga ustoz deb biladilar. Rus shoiri Aleksandr Pushkinning ajoyib bir fikri bor:

Toki birorta shoir qolar ekan olamda,
Meni sira tark etmaydi shon – shuhrat.

Ya`ni, zar qadriga zargar etadi deganlaridek, ustoz qoldirgan ma`naviy merosni, Namangan ziyolilari e`tirof etadilar. Uning badiiyatiga yuksak baho beradilar. Biz ushbu bitiruv

¹ И.А.Каримов. Халқ ишончи олий масъулият. Тошкент – “Ўзбекистон” нашриёти, 2000 й. 225-бет.

² И.А.Каримов. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пиروvard мақсадимиз. Тошкент – “Ўзбекистон” нашриёти, 2000 й.

³ И.А.Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент-“Ўзбекистон” нашриёти, 2011 й.

– malakaviy ishimizda ham olim, ham shoir, ham dramaturg Nuriddin Boboxo`jayeov asarlarida inson ruhiyati qay darajada yoritilganini izohlashni el nazariga tushishiga sabab bo`lgan izlanishlarini sharhlashni **maqsad** qildik. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarishni rejalashtirdik:

- Nuriddin Boboxo`jayeov hayot yo`li va ijodida lirik qahramon tasviri yoritish;
- Ijodkor asarlarida ezgulikning kuylanishi izohlash;
- Nuriddin Boboxo`jayeov – samimiy do`stlik kuychisi ekanligini asoslash;
- Nasriy asarlarida qahramonning ma`naviy qiyofasini yoritish;
- Ijodkorning o`ziga xos mahoratini ochish;
- Nuriddin Boboxo`jayeov – mohir dramaturg ekanligini asoslash.

Ishning ob`ekti va predmeti

Nuriddin Boboxo`jayeov tomonidan yaratilgan asarlar bizning tadqiqot ishimiz ob`ekti hisoblanadi,

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi

Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari bilan bevosita bog`liq bo`lgan ilmiy-nazariy mulohazalar, amaliy tahlillar jarayonida quyidagi yangiliklarga erishildi:

- Nuriddin Boboxo`jayeovning hayot yo`li bugungi avlod hamda kelgusi avlod uchun ham ibrat ekanligi asoslandi.
- Shoir she`rlarida lirik qahramon tasviri: a) ota timsoli; b) ona timsoli; v) ustoz timsoli; g) yor timsoli yoritildi.
- Ijodkor asarlarida ezgulikning kuylanishi dalillar asosida izohlandi.
- Nasriy asarlarida qahramonning ma`naviy qiyofasi qanday ekanligi yoritildi.
- Ijodkorning o`ziga xos mahorati ochib berildi.

Bitiruv-malakaviy ishining amaliy ahamiyati

Ish natijalaridan adabiyot o`qitish jarayonida, ochiq darslarni tashkil qilishda, ta`lim maskanlarida seminar mashg`ulotlarini o`tkazishda, umuman, adabiy ta`lim sifatini oshirishda foydalanish mumkin.

Ishning nazariy asoslari va unda qo`llangan metodlar

Mavzuni yoritishda adabiyotshunos olimlar O.Sharofiddinov, E.Vohidov; shoirlar Zulfiya, N.Boboxo`jayeov; tadqiqotchilar A.Xalilbekov, T.No`monov kabi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalandik.

Bitiruv-malakaviy ish manbalari

Bitiruv-malakaviy ishimizning manbai adabiyotshunos olimlar O.Sharofiddinov, E.Vohidov; shoirlar Zulfiya, N.Boboxo`jayeov; tadqiqotchilar A.Xalilbekov, T.No`monov kabi olimlarning fikr-muloxazalari hamda shoir, dramaturg, olim Nuriddin Boboxo`jayeovning asarlari hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi va hajmi

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami ____ betni tashkil qiladi.

I. BOB. NURIDDIN BOBOXO`JAYEVNING HAYOT YO`LI VA IJODIDA LIRIK QAHRAMON TASVIRI

1.1. Nuriddin Boboxo`jayeving hayot yo`li

Shunday insonlar bo`ladiki, ularning qilgan ishlari, umr yo`llari ko`pchilik ko`z o`ngida, nazarida turadi. Ular odamlar orasidap o`zlarining bosgan qadamlari sahovat va ezguliklari bilan ibratga loyiq holda umrguzaronlik qiladilar, ular orasida ma`rifat chirog`ini yoqadilar. Ilmni targ`ib etib, shogirdlar etishtiradilar. Ulardagi ezgulikning poyoni yo`q, ulardagi mehr bulog`i tuganmas bo`lib, barcha undan bahramand bo`laveradi. Ana shunday mo`tabar, yaxshi insonlardan biri - shoir, olim, nosir, jurnalist, dramaturg Nuriddin Boboxo`jayevidir. Biz ushbu ilmiy ishimizda ijodkorning barcha qirralarini to`liq yoritma olmasak ham imkon qadar eng kerakli o`rinlarga urg`u berishga intildik va zarur ma`lumotlarnigina berdik.

Nuriddin Boboxo`jayevev – 1929 yilning 10 iyunida o`sha vaqtlarda bog` – rog`lar-uekinzorlardan iborat bo`lgan Namangan shahrida dehqon oilasida tug`ildi. Dadalari Buvaxo`ja shaharga yondosh qir eridagi jamoa xo`jaligining a`zosi edilar. Onalari Tursunxon oya savodli, diniy bilimlardan chuqur xabardor ayol bo`lib, farzandlarining kelajagiga katta ta`sir o`tkaza oldilar. Nuriddin Boboxo`jayevev dastlab Namangandagi o`qituvchilar tayyorlash institutini tamomladilar. So`ngra 1949 yilda Farg`ona Davlat institutiga o`qishga kirdilar. O`sha paytlar 2-jahon urushi asoratlarini tugatish davri edi. Keyinchalik ko`p, oziq – ovqat taqchilligi hamma erda sezilardi. Bu esa ko`pgina oilalarga ta`sir o`tkazib, odamlar o`qishdan ko`ra qorin to`yg`azish qayg`usida edilar. Shu sababdan yosh talabaning ham ishlab, ham o`qishiga to`g`ri kelardi. Bu jihatdan yosh Nuriddinga omad kulib boqdi. Tabiat ato etgan ajoyib ovoz, adabiy tilda chiroyli gapira olish qobiliyati tufayli u Farg`ona radiosi suhandoni sifatida faoliyat olib bordi va oliygohning kunduzgi bo`limida to`rt yil tahsil oldi. Ustozlari Hasanali Rustamov, Solijon Soatov, Akramjon Ibrohimov, Ahrorjon Ma`rupov, O`rinboy Holmatov, Boymirza Farmonov, G`anijon Abdurahmonov kabilarning ziyo nurlaridan bahra oldi. Ular bergan ta`lim saboqlarini o`zlashtirdi. Odamiylikni, shogirdlar dilini tushuna olish sirlarini, pedagogik mahorat maktabining o`zicha hos asrorlari haqida zarur tushunchalar oldi. Yosh talabadagi qobiliyat, iste`dodni ko`rgan ustozlar bir ovozdan uni oliygohda o`qituvchi etib qoldirishga qaror qildilar. Shu o`rinda yana bir narsani qayd qilish lozimki, Nuriddin Boboxo`jayevevda jurnalistikaga qiziqish ham o`ta kuchli bo`lib, “Farg`ona haqiqati”ning deyarli har bir sonida maqola, she`r, ilmiy taqrizlar bilan ishtirok etishni kanda qilmas edi. Oliygohda 2 yil ishlagandan so`ng 1954 yildan Namangan shahar partiya komitetida propaganda bo`limida faoliyat ko`rsatadi. 1958-1960 yillarda hozirgi “Namangan haqiqati” gazetasining madaniyat bo`limini boshqardi. 1961-1962 yillarda Nuriddin Boboxo`jayevev qadrdon, o`zi ta`lim olgan Farg`onaga yo`l oladi. Uni qadrdon ustozlari bir necha yillardan buyon birga ishlashga chaqirmoqda edilar. Ustozlar gapini erda qo`ymaslikka odatlangan Nuriddin Boboxo`jayevev, Farg`ona Pedagogika institutida 2 yil, yana yoshlarga adabiyot fanidan saboq beradi. Biroq, dadalari Buvaxo`ja 1962 yili 84 yoshda bo`lib, ular bilan katta hovlida qolgan o`g`il Nuriddinning Farg`onada yurishini ota qabul qilolmas edilar. Shuning Buvaxo`ja o`zlari qiynalib bo`lsalar-da Farg`onaga borib, institut rektori Solijon Soatovdan o`g`illarini Namanganga qaytarishni o`tinib so`raydilar. Insonparvarlikni qarangki, Solijon Soatov Namangan pedagogika institutining o`sha paytdagi rektori bilan bog`lanib: Agar Namangan ped institutida Nuriddin Boboxo`jayevevga o`rin bo`lsagina, Farg`ona unga javob berishini, yo`qsa, Nuriddin uchun Farg`ona eshiklari hamisha ochiqligini ta`kidlaydi.

Mana shu misoldan ko`rinib turibdiki, bizningcha, Nuriddin Boboxo`jayevev yuksak darajadagi odamiylikni farg`onalik ustozlari Solijon Soatov, Hasanali Rustamov, G`anijon Abdurahmonovlardan o`rgangan bo`lsalar ajab emas.

Nuriddin Boboxo`jayevev 1963 yillardan Namangan pedagogika instituti adabiyot kafedrasida o`qituvchi, boshlang`ich ta`lim kafedrasida mudir, so`ngra institut sirtqi bo`limida prorektor vazifalarida faoliyat olib bordi. O`sha davr talablariga ko`ra institut o`qituvchilari ma`lum vaqt oralig`ida ilmiy ish qilishlari, fan nomzodi darajasini olishlari shart edi. SHuning uchun Nuriddin Boboxo`jayevev 1967-1969 yillarda Nizomiy nomli Toshkent pedagogika instituti qoshidagi aspiraturaga o`qishga kiradi. Unga “Zulfiya ijodining badiiy mahorati” mavzusida

ilmiy ish berishadi. U ustoz professor Ozod Sharafiddinov rahbarligida ushbu ilmiy ishni muvaffaqiyatli himoya qiladi.

Nuriddin Boboxo`jaye v nomzodlik darajasini olgandan so`ng yana Namangan pedagogika institutida yoshlarga adabiyotdan saboq berishda davom etadi. U o`sha yillarda viloyat, shahar, institut jamoa ishlarida faol ishtirok etar, shu bilan birga “G`azalxon Namangan” adabiy uyushmasini ham jamoatchilik asosida boshqarar edi. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan uning viloyat bo`limlari tashkil qilina boshlangan, Nuriddin Boboxo`jaye v O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyat bo`limini 1970-1973 yillarda boshqaradi. Shu bilan birga asosiy vazifasi institutdagi pedagogik faoliyatidan zarracha uzilib qolmadi.

1976 yili shoirning “Umid niholi” she`rlar to`plami G`afur G`ulom nomli adabiyot va san`at nashriyotida chop etildi.

1977 yili “Fan” nashriyoti Nuriddin Boboxo`jaye vning O`zbekiston xalq shoirasi Zulfiya ijodiga bag`ishlangan “Badiiy niyat va lirik ifoda” nomli yirik monografiyasini kitob holda chop etadi. U doimo pedagogik faoliyatini badiiy ijod bilan qushib olib borar edi. Uning “Sog`insam otajonim”, “Hamisha borim onajon” kabi to`plamlari bunga misoldir. U umri davomida respublika gazeta va jurnallaridagi faol ishtiroki bilan ham tanilgan edi. Nuriddin Boboxo`jaye v adabiy uyushmaga rahbarlik qilgan kezlari, ko`plab yosh dramaturglarga qimmatli maslahatlar bergan, ular asarlari muhokamasida bevosita ishtirok etgan edi. SHu sababli bo`lsa kerak, 1974 yili anchadan buyon qo`lyozma hamda saqlanib kelayotgan “O`zing ko`zim nuri” dramasi ni Toshkentning taniqli dramaturglari Turob To`la rahbarligida jiddiy muhokamadan o`tkazdilar. Va badiiy kengashga tavsiya qildilar. Badiiy kengash qaroriga ko`ra drama Namangan Davlat musiqali va komediya teatrida sahna yuzini ko`rdi. 1996 yili N.Boboxo`jaye vning “Madaminbek” nomli tarixiy daramasini ham viloyat teatrida sahnalashtirildi.

Nuriddin Boboxo`jaye v Turob To`la, Zulfiya, G`afur G`ulom, Oybek, Sulton Jo`ra, Zafar Diyor, Asqad Muxtor, Saida Zunnunova va yana boshqa adabiyotimiz rivojida katta o`rin tutuvchi ijodkorlar asarlari yuzasidan ko`plab ilmiy maqolalar, taqrizlar e`lon qildi. O`tgan asrning 60-90 yillarida bu maqolalar respublika, viloyat matbuotida bosilib chiqdi.

Nuriddin Boboxo`jaye vning faol izlanishlari bekor ketmadi. Farg`ona, Namanganning deyarli barcha tumanlarida uning shogirlari bor edi. Hukumatimiz tomonidan uning xizmatlari inobatga olinib “Xalq maorifi a`lochisi”, “O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvonlari, bir necha medallar bilan taqdirlangan Nuriddin Boboxo`jaye v ijodkor sifatida O`zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi a`zosi, Namanganda adabiyotning jonkuyar targ`ibotchisiga aylangan Nuriddin Boboxo`jaye v 1999 yilning 7 dekabr kuni hayotdan ko`z yumdi. Ammo o`zi aytganidek:

Gul bilan oshno erur,
Gul diyori bag`rida
O`l magay Nuri Bobo
Umri baqo deb axtaring.

Inson ruhiyati. Uning sir-u sinoatiga ming yillardan buyon qiziqmagan, jumboqlaridan hayratlanmagan odam topilmasa kerak. Rasmlarda inson ichki dunyosini berishga intilish, raqsda yurak sirlarini harakat orqali ifodalash, qo`shiqda qalb kechinmalarini quylash – bularning bari inson ruhiyati jilolaridir. Biz adabiyotni inson ruhiyatining hali hech kim yoritmagan tomonlarini ko`rsatib bera oladigan san`at turi deymiz. Adabiyot orqali biz voqealar bayonini yoki voqealar rivojini emas, bevosita o`sha voqealarda ishtirok etayotganlarning ruhiyati haqida, ularning yaxshi-yomonligi, quvonch – izzitoblari, g`azab-qayg`ulari, hayotga munosabatlari to`g`risida nimadir bilamiz, xulosalar chiqaramiz. Ularning ruhiy olami, bu olamdagi o`ziga hos manzaralar o`quvchini befarq qoldirmaydi. U o`z ichki holati bilan asar qahramonining o`y-fikrlarini, orzu-intilishlarini, bosgan qadamlarini taqqoslaydi, muhokama chizig`idan o`tkazadi, ko`ngli jazm etgan o`rinlardan o`rnak oladi, yoqsa o`sha qahramonga taqlid qiladi. Bu kitobxon bilan asar qahramoni (u hoh she`r, doston, hoh qissa, hoh roman yoki hikoya bo`lsin) o`rtasida ruhiy yaqinlik fikriy mutanosiblik borligidan dalolatdir. Ustoz Nuriddin Boboxo`jaye v asarlarida ham huddi shunday she`rlaridagi tuyg`ular silsilasida inson ruhiyatining g`alati jilolari mujassam. Bu

qirralar she`ni dilga yaqin etadi, ruhiy ko`tarinkilikka sabab bo`ladi. Keling, bunga ustozning o`zi ko`rgan bevosita shohidi bo`lgan voqeani keltirish bilan izohlasak (voqea XX asrning 50-yillarida kechgan edi): “Bunga ancha yillar bo`ldi. Katta yuk mashinasida rayonga ketayotgan edik. Oliy o`quv yurtini shu yil bitirib kelgan yigit birdanga kabinani ura ketdi. To`htar – to`htamas mashinadan sakrab tushdiyu, o`n qadamcha ortga borib, simyog`ochga o`rnatilgan radioni tinglay boshladi. Diktor juda maromiga keltirib, she`r o`qiyotgan edi, birini tugatib, ikkinchisiga o`tar, uchinchisini o`qir. Keyin bilsam, eng yaxshi ko`rgan, ixlos qo`ygan shoirning she`ri o`qilayotgan ekan”.¹

Ushbu voqeadan ko`rinib turibdiki, she`r oshig`i ruhiy tashnaligini qondrish uchun hech narsaga parvo qilmay mashinadan tushadi. She`r uni ruhiy muvozanatdan chiqara olgan. Uning boshqalarga o`hshamagan xarakteridagi ruhiy jihat she`rning qanday qudratli kuchga ega ekanini anglab etganlikda! Bu bilan u cheksiz estetik zavq, kuchli ruhiy ozuqa oladi. Inson o`ta qiziquvchan. Ammo uning qiziqishini o`zga hech narsaga qiyoslab bo`lmaydi. “So`zda sehr, she`rda hikmat bor” – deganda donishmandlar naqadar haq ekanlar. Biz ustoz haqida fikr yuritar ekanmiz, maqsadimiz, muddaosini adabiyot bilan inson ruhiyati o`rtasidagi bog`lanishga, munosabatga qaratishni o`yladik. Biz bog`lanish qay darajada murakkab, serqirra va chigal bo`lsa ham, o`sha qirralarning ayrimlarini bera olarmikinmiz deya umid qildik. Ustozning merosini o`rganar ekanmiz, ulug` shoira, benazir so`z san`atkori Zulfiya haqidagi “Badiiy niyat va lirik ifoda” nomli kitobda ham Nuriddin Boboxo`jayev she`rning, umuman, adabiyotning inson ruhiyatiga o`ta kuchli ta`siri haqida ko`pgina mulohazalar bildirilgan. Inson azal-azaldan go`zallik shaydosi, go`zalikka oshufta. Betakror chiroydan bahra olish, undan hayratlanishning o`zi insondagi fazilatlardan biri. Nuriddin Boboxo`jayev asarlaridagi joziba, tabiat manzaralaridagi so`limlik, tog`lardagi osmon qadar yuksaklik, gullardagi ifor hamda nafislik har qanday qalbga o`zgacha ta`sir qiladi. Kishi ruhan taskin topadi. Ko`pincha shoirlar o`zini bezovta qilayotgan, qalbiga tinchlik bermayotgan holatlarni qalamga oladilar. Dengizning ulug`vor po`rtanisi ham, daryodagi bo`ysunmas asovlik ham, bog`lardagi fasliy o`zgarish ham, cho`llardagi bepoyon kengliklar ham inson ruhiyatiga ta`sir o`tkazadi. Insonga ajib sarhushlik bahsh etadi. Yurtimiz tabiatidagi hech bir chamanzorga o`hshamagan manzaralar ustoz kuzatishlari mahsuli bo`lib qog`ozga to`kiladi:

Quyosh bo`sasida yuzi yuvilgan,
Do`msalar o`mida yashillik – boylik,
Qoyalar shag`allar o`mida o`sgan,
Ma`suma nihollar biram chiroyli.
G`ir – g`ir esgan ellar, maysalardan bo`y,
Gullar kurtagidan atir ulashar,
Tunda yulduzlar ham bunda qilar to`y,
Kunduz quyosh sayrin shu erdan boshlar.²

Vatanni sevish, uning har bir qarich erini ardoqlash tuyg`usi Nuriddin Boboxo`jayev she`riyati qahramoniga xos bo`lgan, xususiyat. O`lkamiz go`zalligidan zavqlanish, bu cheksiz chamanzorning yanada yashnashi, barq urib gullashi, dovrug`i olamni tutish uchun yurt farzandlari mas`ul va burchlidirlar. She`rning lirik qahramoni buni dildan his qiladi. Uni yurt osmonida saxiy nur sochayotgan quyosh ham, unib – o`sayotgan nihollar ham, maysalar – u, gullardan ifor sochayotgan ellar ham, hatto tog`u toshda tiklangan – halqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati samarasi bo`lmish bino ham, hovuzdagi tiniq suv ham befarq qoldirmaydi. Uning ruhiyatiga ona – Vatanni chin ko`ngildin suyish hissi singib ketgan. Bu qahramon yo`l – yo`lakay bu hisni kimdandir yuqtirib olgan emas. Bu his unga ota – bobosidan meros. Ajdodlarimiz qonida oqqan ona yurtga bo`lgan mehr, uni ko`z qarog`iday asrash tuyg`usi nasldan naslga o`tgan insoniy fazilat. Vatani manzarasidagi har bir holat huddi rassom chizgisiday uning nigohida- diqqat e`tiborida:

Issiq tortsa havo, issiq tortsa tan,

¹ Бобоҳўжаев Н. Бадийий нилят ва лирик ифода. – Тошкент: “Фан” нашриёти. 1974 й. 3-бет.

² Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажон. Наманган: “Наманган” нашриёти, 1994 йил. 167-бет.

Harorat zo`ridan qiynasa nafas,
Shifo topmoq uchun ikkilanmasdan,
Namangan bog`iga yo`l olsangiz bas.
Shunda siz sezasiz odam qudratin,
Yashash ishtiyoqin, erga mehrini,
Buyuk kelajak deb qilgan jur`atin,
Yurtga sevgisini, elga mehrini.¹

Shoir Nuriddin Boboxo`jayev – O`zbekistonni, Toshkent, Farg`ona, Namanganni ulug`lovchi she`rlari jamlangan turkumga “Yashnab turguvchi bog`im” deya nom quygan edi. U mudom ona – Vatanning har qarich eri yashnab turishini istadi. Bu istak natijasi o`laroq Farg`onaga bag`ishlangan “Qalbidagi jahon” she`ri yuzaga keldi:

Onajon Farg`onam gul shinam vodiy,
Serto`kin dasturxon, xazinai dur,
Jur`atlar tolelar, shonlar avlodi,
Tayanchim, qo`llovchim pokiza shuur.
Singgan ta`limingga, bergan tuzingga,
Burchliman sen uchun bir fidoyi jon,
G`ubor qo`ndirmayman shaffof yuzingga,
Ey, mening qalbidagi eng buyuk jahon.²

Vatan farzandi bo`lmish she`rning qahramoni ana shunday tarzda fikrlaydi, mushohada yurgizadi. Uning ruhiy olami – bu ezgulik olami. Bu olamdagi eng buyuk va ardoqning o`zi – ona Vatan!

Yurt tuprog`i! Uning betakror go`zalligi! Bu go`zallik farzandning ko`zi qarosida, qalbining tubida, o`y – hayollarining pokiza qatida mujassam. Balki, ustozni tunlar bedor etgan, sershovqin ko`chalarda hayolini bo`lgan, tog` yo`llarida o`yga cho`mdirgan, yashil archazorlarda shavq ulashgan, chashma bo`ylarida suv simirishga undagan, tog`lar salobatidan lol qoldirgan, dardlar sokinligidan ko`zlarida hayrat uchqunlarini sachratgan – Vatan chizgilari emasmi? Balki Nuriddin Boboxo`jayevning qalbidagi cheksiz ummon bor - yo`g`i kichik bir tomchi bo`lib she`rga aylangandir.

Balki shoirning ruhiyati osmon qadar keng va cheksizdir-u uning atigi ko`zimiz ko`rib turgan kichik bir bo`lagi lirik qahramon ruhiyatiga jo bo`lgandir. Biz hozirda bu savolga to`la to`kis javob bera olmasak–da, ustoz she`riyatidagi inson ruhiyati talqini o`zga ijodkorlarda uchramaydigan o`ziga hos ekanini e`tirof etishni ta`kidlardik. Chunki bu talqin ustozning Namangan adabiy muhitidagi betakror ijodkor ekaniga shahodatdir. Ushbu betakrorlik zamirida betinim mehnat, yillar so`qmog`i, sabru – toqat ta`mini, his – tuyg`uni seza bilish hamda ifodalay olish san`ati bor deb o`ylaymiz. Zero, har qanday zahmat besamar ketmaydi. Yaxshi niyat ila qo`lga olingan qalam zakiy zot qo`lida bo`lsa, dur – u javohirni qog`ozga to`ka oladi. Ushbu qiyosni ustoz ijodiga ham qo`llashni joiz deb bilsak adashmadik degan o`yga boramiz. Davru davron yugurik. Vaqt oqar suv. Aksariyat tashbehlar, falsafiy mushohadalar yillar sinoviga dosh berolmay eskirishi tabiiy. Ammo biz bugungi kun nazari bilan boqar ekanmiz, ustozning adabiy merosi hozir ham o`z qadru – qimmatini yo`qotmaganiga amin bo`lamiz. Uning qahramonlari – ruhsiz, jonsiz, quruq obraz emas, balki o`rganishga, tadqiq etishga arziqli timsollaridir. Bir narsani yana bir bor eslatishni istar edikki, ustoz Nuriddin Boboxo`jayev 50-70 yillarda jo`shib, yonib ijod qildi. Vaqt o`tgan sari Namangan adabiy muhitida o`shish, o`zgarish, ijobiy holatlar ko`paydi. Adabiyotning yuksak talablari o`ta beshafqat bo`lmasin, ustoz adabiy merosida ushbu talablarga-da dosh bera oladigan asarlar bisyor. Chunki ustozning o`zlari Ozod Sharafiddinov, Zulfiya, Asqad Muxtor, Turob To`la kabi adabiyotimiz chinorlari bilan qadrdon bo`lganlar. O`tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, erkin Vohidovlar esa ustoz Nuriddin Boboxo`jayevni nafaqat ijodkor, balki samimiy, ochiq ko`ngil inson sifatida ham yuksak qadrlaganlar. Biz tadqiqotimiz so`ngida Ozod Sharafiddinov, Turob To`la, Zulfiya, O`tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlarning

¹ Шу асар.

² Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним. Наманган. “Наманган” нашриёти 1994 йил. 146-бет

ustoz Nuriddin Boboxo`jayev haqidagi fikrlarini keltiramiz. O`zbekiston xalq shoiri Habib Sa`dulla 1963 yili ustoz haqidagi quyida keltirilgan she`rni bitgan edi:

Yaxshilik

Nuriddin akaga

Men bo`ronda qolsam seni o`ylayman.
Men to`fonda solsam seni o`ylayman.
So`ngsiz suvda qolsam seni o`ylayman.
Adashsam yo tolsam seni o`ylayman.
Chunki sen bor ekan, men tirik borman,
Yo`lingdan o`lmoqqa doim tayyorman.
Seni bilmaganni atayman o`lik.
Noming oddiygina – yaxshilik.

Ushbu she`rni keltirishimizga sabab shoir Habib Sa`dulla nazarida ustoz Nuriddin Boboxo`jayev odamiylik borasida ibrat olgulik inson edilar. Ustoz asarlari qahramonlarining ko`pchiligi ham ezgulik dunyosi vakillari edi. Ular ruhiyatidagi yaxshilik qila olish tuyg`ulari o`quvchi dunyoqarashiga katta ta`sir o`tkazishi, shubhasiz. Nuriddin Boboxo`jayev insonni o`ta qadrlar edilar. Ularning ko`pgina asarlarida ham shu holning ifodasini ko`ramiz.

Qahramonlar esa yaxshi orzu – umidlar sohibi. Ular dunyoda yaxshilikni, insoniylikni, vafoni har qanday illatlarning ustidan g`alaba qozonishini hohlaydilar. Bu orzu yo`lida o`zlarini aslo ayamaydilar. Ular dardsiz insonlarga nisbatan tanqidiy ko`z bilan qaraydilar: har qanday odam borki, uning yuragida g`ami bo`lishi lozim deb hisoblaydi. Insonni odamiylikka undaydigan, uni ezgu ishlar sari yo`llaydigan ulug` bir qudrat bor-u ham bo`lsa yurakdagi g`am. Bu g`am ezgulik tashvishi. Bizni oromdan, halovatdan, hayotga befarq qarashdan begona qiladigan – g`am. Kimki ushbu g`amdan holi bo`lsa, ertaklardagi Abutanbalidan farqi qolmaydi. Bamisoli kesakday. Yana bir jihat shundayki, dunyo faqat o`yin – kulgidangina iborat emas. Yaxshilik yo`lida g`am chekish insoniylik belgisidir:

G`am borki, nohaqlik gurzisi bo`lib,
Shamshodday qaddingni egib qo`yar, rost.
G`am borki, sha`ningni nurga yo`g`irib,
Kulfatdan vujuding etadi xalos.
G`am chekib, shu g`amda baxt kuchganlar,
Rost emasmi obro` topganlari ham,
Baxtiyorman shu xil g`am uchqunlari
Qalbimdan joy olib qolsa mustahkam.¹

Ushbu she`rdan muddao shuki, o`quvchi yuragida yonib, yaratib yashash ishtiyoqini olanga oldirish. Uni yanada faollikka chaqirish. Loqayd hamda befarqlikka nisbatan nafrat uyg`otish.

1.2. Shoir sher`rlarida lirik qahramon tasviri:

a) ota timsoli:

Adabiyotning vazifasidan biri – kitobxonga nimanidir tasvirini berishgina emas, uni nimagadir undash ham. Bu haqda shoir Asqad Muxtorning quyidagi fikrlari o`rinli:

“She`r odamning yashashi uchun, kurashishi, ulg`ayishi uchun zarur. U shoirlar tomonidan o`ylab chiqarilgan narsa emas. Har bir halol qalbning tubida hissiy boylik bor. Shoir ana shu hislar tuyonini uyg`otadi, xolos. Qalb g`aflatda qolsa, ya`ni odam she`riyatdan mahrum bo`lsa – bu dahshat emasmi? Hayotda she`riyat naqadar mo`l bo`lsa, unda foydasiz bo`shliq shuncha kam bo`ladi”.²

Demak, insonning ruhiy kamoloti uchun adabiyot juda – juda zarur. Lekin mohiyat, e`tibori bilan bu adabiyot chinakam adabiyat mahsuliga aylanmog`i talab etiladi. Buning uchun

¹ Бобохўжаев Н. Соғинсам отажоним Наманган: “Наманган” нашриёти 1994 йил. 61-бет.

² Шарафиддинов О. Истеъдод жилोलари. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Абадиёт ва санъат нашриёти. 1976 йил. 178-бет.

esa ijodkor iste`dod egasi bo`lmog`i kerak. Iste`dodsiz yaratilgan asarlar hech qachon o`zini oqlagan emas. Betakror tanqidchi Ozod SHarafiddinov yaxshi asarni mo`jizaga qiyoslar ekan shunday deydi: “Bunday mo`jiza yozuvchining mahorati, san`atkorlikka qobiliyati, iste`dodi tufayligina sodir bo`ladi. Gap aylanib yana iste`dod ustiga keldi. Bu – bejiz emas. Yozuvchini yozuvchi qiladigan iste`dod. Iste`dod badiiy asarga jon ato qiladi, asarni ichidan nurlantirib turadi. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakterlar yaratishdagi, asarga badiiy sayoqal berishdagi, o`ziga hos hislatlari birlashib, uning iste`dodi haqida aniq tasavvur beradi”.¹

Garchand muhtaram munaqqidimiz Ozod Sharafiddinov ushbu fikrlarni mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor iste`dodi yuzasidan aytgan bo`lsa ham, adabiyotimizdagi har qanday shoir yoki yozuvchiga u qoldirgan merosga qo`llash mumkin. Bizningcha, shoir ijodida eng ko`p tilga olingan obraz ota siymosi. Ota siymosini tasvirlash, unga bo`lgan farzand sog`inchini ifodalash aslida adabiyotimizda yangilik emas. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida va urushdan so`ng bu mavzu ko`p marta qalamga olingan.

Misol sifatida adabiyotimiz durdonasiga aylangan erkin Vohidovning “Nido” dostonini keltirishimiz mumkin. Ammo bir narsani alohida ta`kidlashni istar edikki, o`sha totalitar tuzum sharoitida otaga bo`lgan sog`inch orqali jahon urushi qoralanishi, sobiq tuzumning g`oyaviy dushmanlarini nafratga duchor qilish shart edi. Yillar kechgani sayin bu mavzu o`zgacha qiyofa kasb eta bordi. YA`ni oddiy, sodda o`zbekona ohangdagi sog`inch tuyg`ulari adabiyotimizda o`z o`rnini topa bordi. Otaga bo`lgan sog`inish hislarini yoritgan ijodkorlar baholi qudrat – o`z iste`dodi darajasida buni uddalashga intildi. Shoir Nuriddin Boboxo`jayevda ham ushbu sog`inchni ifoda etuvchi she`rlar talaygina. Lekin adabiyot tarixidan shu narsa ma`lumki, eng mashhur shoirlarda ham ularning barcha she`rlari mukammal, benazir, chinakam san`at asari darajasiga ko`tarilgan bo`lavermaydi. Garchand bu qiyosimiz unchalik o`rinli chiqmasa-da, Nuriddin Boboxo`jayevda ham ota mavzusidagi she`rlar bisyorligini yuqorida aytib o`tdik. Lekin she`rlardagi ota obrazi, unga bo`lgan farzand talpinishlari, sog`inchi quyidagi she`rlarda, bizningcha o`z ifodasini topa olgan “Sog`insam otajonim” (1963), “Men otam o`g`liman” (1964), “Men otamdan kechgan emasman” (1991) kabi she`rlarda lirik qahramonning ruhiy holatidagi tabiiylik, ota siymosidagi ulug`vorlik, farzand qalbidagi sog`inch-iztiroblar saviyasi ancha yuksak ifoda etilgan. Farzandning otasiz ulg`ayganining o`zi so`ngsiz bir armon! Yillar o`tib bo`lgan. endi uning yuragiga taskin, bir malham kerak. Yongan yurakdan chiqqan nolalar misralar bo`lib, huddi yonayotgan olovday. Bu olov qudratini hech bir narsaga o`hshatib bo`lmaydi. Sog`inch tuyg`ulari farzandning o`y – hayollarini butkul qamrab olgan. Uning uchun otaday ulug`, otaday tabarruk aziz zot yo`qdir dunyoda! Farzand otaning qadrdon ovozi yana bir bor eshitishi uchun borlig`ini berishga tayyor. Faqat ezgulikka yo`g`rilgan kishilardagina ana shunday beg`ubor hislar bo`lishi mumkin. Otasini qadrlay olganlargina o`z yaqinlariga sadoqatli, mehribon va vafodor bo`lishlari mumkin. Shu o`rinda shoir Nuriddin Boboxo`jayevning “Sog`insam otajonim” (1963) she`riga to`xtalib o`tsak:

Sog`insam otajonim izlayin qaerlardan,

Sog`insam nur jahonim izlayin qaerlardan.

Dasturxon yozilganda ne`matlar tikiladi,

Ilinib o`ltiraman yuragim to`kiladi.

Ko`ray deb anorlar ham chokidan so`kiladi,

Sog`insam otajonimni izlayin qaerlardan.

Oqsoqol otalarga qush kabi talpinaman,

Ko`rsam gar suvratlarin suv misol qalqinaman,

Yig`lamay yashayman-u ammoki sog`inaman.

Sog`insam otajonim izlayin qaerlardan²

She`rda farzand dilidagi dard juda chuqur ifodalangan. Bu she`r o`sha yiliyoq hofizlar e`tiboriga tushdi. Dastlab to`raqo`rg`onlik Vahobjon Abdullaev unga musiqa bastaladi. So`ng o`sha yilning o`zida ustoz san`atkor Tavakkal Qodirov uni qo`shiq sifatida elga tanitdi. So`ngra

¹ Шу асар.

² Бобоҳўжаев Н.Соғинсам отажоним. Наманган: “Наманган” нашриёти. 1994 йил. 13-бет

Nuriddin Hamraqulov, Sherali Jo`raev, Kamoliddin Rahimov, Boqijon Sattorov va Dilshod Rahmonov. Ushbu xushnafas hofizlar orasida Nuriddin Hamraqulov va Sherali Jo`raevlar ushbu she`rni ikki xil usulda kuylab, ikki xil usulda musiqa bastalaganlari alohida e`tiborga sazovor.

Navoiy hazratlarida “Boshni fido ayla ato qoshig’a”¹ degan ajoyib fikr bor. Otaday muqaddas zot oldida farzand hamishalik qarzdor. Bu qarzni qiyomatga qadar ham uzib bo`lmaydi. Rivoyatlarda ta`kidlanishicha, ota yotgan uyning tomiga chiqishga farzandning haqqi yo`q. Bu go`yoki otaning ustidan bosib o`tishday bir gap. Hayotning achchiq saboqlaridan ko`ramizki, dunyoda qaysi millat, qaysi irq bo`lishida qat`iy nazar, otasini xo`rlagan farzandning biri ikki bo`lgan emas. Farzand xoh o`g`il, xoh qiz bo`lsin, u otasi oldida bag`oyat burchlidir.

Nuriddin Boboho`jaevning lirik qahramoni pokiza yurakli farzand. U she`rdan she`rga ko`chib yurganday go`yo. U Xamisha ota hurmatini joyiga qo`ya oladi. Izlarini ko`ziga surtishga tayyor. Yurak esa otaga bo`lgan sog`inch bilan limmolim. Dunyodan o`tgan bo`lsa ham otani doimo yodga oladi.

Yana sizni eslab ketdim, dadajon,
Tutkich bermay qoldi hayollarim.
Asli eslamagan kunim yo`q,
Hatto, dada, deb chaqirganda.
Bolalarim.
Haftalab chiqmasam mozoringizga
Qabringizni ko`rib qaytmasam.
Ta`zim qilib so`nggi izingizga,
Sog`inchimni to`lib aytmasam.
Tatimaydi dadajon
Yurganlarim.²

Yoshligida otasi bilan qaerlarga borgan bo`lsa, nimalarni ko`rgan bo`lsa, eslaydi. Yurgan yo`llarini, bosgan qadamlarida armon nafasini tuyadi. Ota bilan kechgan damlarni xotirlaydi. endi hech qachon otani qaytarib bo`lmasligi yuragini ezadi. Bunday misralar bilan tanishgan o`quvchida o`z otasiga bo`lgan mehr ortishi tabiiy albatta:

Yo`q, visol ko`rishmasdan ketmagansiz.
Armon bo`lib qolmagan bu hijron.
Diydorimda tashnalikda o`tgansiz.
Yo`qsa, tinmas edi, qalbmida vulqon
Yo`qsa, sarob edi bu baxt,
Ko`rganlarim.
Roziman dedingiz.
Takror etdingiz,
O`t chaqnab ketdi qonimda
Shu bir so`z odamlarga qo`shdi meni
Yo`qsa, bekor edi
El aro safda turganlarim
Tatimasdi dadajon
Yurganlarim.³

She`rdagi lirik qahramonning ruhiy holatlaridagi mahzunlik, alam ustivor esa – da otani rozi qila olganidan ichki iftihor seziladi. Qahramon o`ta shaffof, pokiza hislar ummoniga shu qadar g`arqki, nazarida otaga xizmat qilish, uni e`zozlashdan ortiq, baxtni ko`rmaydi hayotda! Tutqich bermas hayollarida ota suvrati! Bolalari chaqirig`i ham otani eslatadi. Yurgan qadamlarida ota unga boqib turganday go`yo. Yuqorida ta`kidlaganimizday aksariyat ijodkorlardagi ota siymosini ulug`lash 2-jahon urushi mavzusidan ayrim holda ifoda etilmagan,

¹ А.Навоий. Хазоин ул – маони. Бадоеъул-васат. Тошкент. “Бадий адабиёт” нашриёти. 1965 й 3 том 58 бет.

² Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним. Наманган: “Наманган” нашриёти, 1994 йил. 10-б.

³ Бобоҳўжаев Н Соғинсам отажоним. Наманган: “Наманган” нашриёти, 1994 йил. 10-б.

balki shu mavzu bilan chambarchas bog'liq. Ammo Nuriddin Boboxo`jayev she`ridagi ota timsoli butunlay o`zgacha. Bu ota uzoq umrguzaronlik qilgan, farzandlarini uylab – joylagan, piru badavlatlikka erishgan. Biroq nachora, o`lim haq. Beshafqat o`lim oiladan otani yulib oldi. Otaga – onaga, yaqinlariga nisbatan cheksiz mehr ruhida tarbiyalangan farzand uchun bu adolatsizlikday tuyuladi. Uning nazarida yaxshi insonlarning umri boqiy bo`lmog`i kerak. Ayniqsa, otaning. Ammo bu tabiat qonunlariga zid. Shuning uchun ham ayriliqqa ko`ngisi kelmayotgan farzand qalbi nidoga to`ladi. Hislar tug`yoni misralar orqali bu qalbning achchiq iztiroblarini, ota bilan birga kechgan eng shirin damlarini ifodalaydi. Bizningcha, she`rning lirik qahramoni Shayx Sa`diy, Alisher Navoiy asarlarida ulug`langan qobil farzanddir. Undagi otaga bo`lgan mehr sarchashmasi har qanday yurakni larzaga soladi, har qanday farzand uchun o`rnak bo`la oladi. Shoira Zulfiya 2-jahon urushini qoralar ekan:

Sen tufayli ko`p xonadonda,
Ota nomli buyuk shodlik kam.¹

Deya she`rdagi ijtimoiy ruhni kuchaytirgan edi. Ammo bevosita Zulfiya ijodini uzoq yillar tadqiq etgan, shoira bilan opa – ukaday bo`lib ketgan Nuriddin Boboxo`jayev ota mavzusiga butunlay boshqacha yondoshdi. Balki u ustozlaridan o`zgacha yo`lni tanlashi, ularni takrorlamasligi uchundir. Balki urushdan so`nggi yillardagi odamlarning fikrlash tarzi XX asr 70-yillariga kelib ancha o`zgargandir. Balki Nuriddin Boboxo`jayev o`zining shaxsiy his – tuyg`ularini umumlashma darajasiga ko`tarishni hohlagandir. Nima bo`lganda ham u bu she`rlar orqali ota siymosini gavdalandira olgan. Farzand obrazi esa tabiiy va samimiy ifodalangan. eng asosiysi shundaki. Ota bilan farzand ikkovlari iymonli, e`tiqodli, yaxshi insonlar sifatida talqin etiladi. Ular hatti - harakatlarida nuqson sezilmaydi. Ular atrofidaulariga faqat yaxshilik istaydilar. Ulardagi mehr rishtalarining ko`rgan har qanday odam havas kilganidek, ushbu she`rda ham biz yana sog`inchning yangicha ifodasini uchramiz:

Issiq izingda sog`inch ko`zlarim,
Arslonbobga qadar keldim, dadajon!
Sizni qidiraman
Siz deb bo`zladim
Taskin topardim deb ushbu tashna jon.
Bu galgi suvlar ham bezovta, tezov,
Menga qiyo boqib chopmoqda hayron,
Maysalar-la suhbat ko`raman yayov,
Maysalar ham sizni so`rar, dadajon!

Farzand nazarida ota duosidan ortiq mukofot yo`q. Bu mukofotga sazovor bo`lish uchun esa doimo ota dilini ovlamoq kerak, farzand yurtini yolg`iz o`zi kezmagani. U keksayib qolgan otasiga ko`pgina joylarni ko`rsatgan. U erlarda ota izzatini joyiga qo`ygan. Shu bois ham taqdir taqozosi bilan yana o`sha erlarga borsa yonida otasi turganday go`yo. Ammo farzand bilan qo`l olib so`rashgan tanishlarining ko`zlarida bir so`roq. Bu so`roq yurakdagi sog`inch, hissini yana alangalatadi, tabiat go`zalliklari qarshisidagi quvonch farzandga otasiz tatimaydi. Hatto shovullagan sharshara ham undan otasini so`rayotgandek tuyuladi. Ota diydoridan benasib farzandning biqini huddi bo`ri uzganday og`riqqa to`la. Turli tashbehlar, jonlantirishlar, farzand ichki dunyosi tasvirlari she`rga ruh beradi. Lirik qahramon holatiga o`quvchini sherik qiladi. O`quvchi uning tuyg`ulariga hayri – hoh bo`ladi. Soy bo`yidagi toshlar ham, tollar ham otaga salovat aytayotganday tuyuladi. Bu esa she`r yakunining muvaffaqiyatida alohida o`rin tutadi.

Nuriddin Boboxo`jayev otani ulug`lash mavzusiga o`ziga xos ravishda yondasha olganini yuqorida aytib o`tdik. Yana bir narsani alohida ta`kidlashni istar edikki, u birgina shu mavzuning o`zida bir xillikdan qochadi. Mavzuni qalamga olar ekan, biri boshqasini aslo takrorlamaydi. Lirik qahramonning yuqoridagi sog`inchi esa rangin jilolarga yo`g`rilgan holda beriladi. Bir narsani eslatib o`tishni istar edikki “ziyorat”, “mozor” kabi so`zlarini adabiy asarlarda aytishdan

¹ Zulfiya Шеърлар. Тошкент: Ғуфур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1968 йил. 10-бет

ko`rgina ijodkorlar cho`chib yurgan paytda, XX asrning 70-80- yillarda Nuriddin Boboxo`jayev ota qabrini ziyorat etishni, umuman, o`tganlar xotirasini ulug`lashni farzandlar burchi deb biladi:

Dilim g`ashlik topsa kezaman mozor,
Ziyorat qilaman ota – onamni,
Ziyoratim har gal keltirar bahor:
O`yimdan quvlaydi xijillik, g`amni.

1968-yili yozilgan ushbu she`rdan so`ng Nuriddin Boboxo`jayevga ko`plab ta`nalar aytili "Sovet kishi"ning mozor kezishini qalamga olish shartmi, bu bilan shoir nima demoqchi, nima, sovet kishisi qayg`u – g`amni o`ziga yo`ldosh bilib anduhda yurishi to`g`rimi, shoir davr ruhini buzib ko`rsatmoqda, nega xalqimizning yaratuvchilik qudrati turganda farzand ota qabri tepasida ko`z yoshi qilishi kerak ekan va hokazo. Yaxshi hamki, baxtimizga istiqloq quyosh porlab chiqdi, yaxshi hamki, chinakam insoniy his – tuyg`ularni baralla aytish uchun imkoniyat yaratildi.

Shoir Nuriddin Boboxo`jayev zamondoshlarining ruhiy qiyofasini asarda berar ekan, ularning tabiiyligi, samimiyligi, eng asosiysi, hayotiyligiga alohida e`tibor qaratadi, bu e`tiborni bir ko`plab she`rlarida ko`ramiz. She`rlar bir qarashda faqat shaxsiy his – tuyg`ularni ifodalayotganday go`yo. Nuriddin Boboxo`jayev voqeaband misralar chizar ekan, bir oz bayonchilikka yo`l qo`yadi. Ammo she`rni o`qir ekanmiz, biz mo`ysafid ota bilan suhbatlashganday sezamiz o`zimizni. Bu mo`ysafidning hayol dunyosi keng, saviyasi baland, odamiyligi bisyor, tuyg`ulari shiddatli.

Bu tuyg`ular po`rtanasi oldida yuqorida aytilgan bayonchilik ortiqcha sezilmaydi. Balki o`sha mo`ysafidning ruhiy holati, kayfiyati, fikrlash tarzi, maqsad – muddaosini teranroq anglashga xizmat qiladi. Ayrim o`rinlarda shoir ortiqcha misralarga o`rin berib yuborgan bo`lsa ham, bu misralar ham o`sha mo`ysafid - lirik qahramon suvratiga qo`shimcha chizgilar bo`lib xizmat qiladi:

Insonman deb oshnam, lof urma bisyor,
Ovladingmi dardchil dilni biror bor.

Gap yana odamiylik, insoniylikka borib etdi. Yaxshi odatlar, ayniqsa, dard bilan og`riyotganlar holidan xabar olish, ularga ham-dard bo`lish xalqimizning qon – qoniga singib ketgan. Lekin buni bila turib ham loqaydlikka yuz burganlar talaygina. Bu hol shoirni bezovta qiladi. Qo`liga qalam olishga undaydi:

Odanzod yashamas ekan nivosiz,
Tishingni tishlatib qo`yar ba`zilar,
Bebaho bilganing, munofiq, orsiz,
Hiyla, makr bilan bag`ringni tig`lar.
Shunda ham eslayman sizni otajon,
Peshonangiz ushlab o`ltirgan damlar,
Derdingiz yomonlik qilmishlik oson,
Yaxshilikka shoshing, shoshing odamlar!

Darhaqiqat, odamlar orasida yomon odatlar juda tez tarqaladi. Ammo yaxshilikning tarqalishi, ommalashishi anchayin qiyin kechadigan jarayondir. Odamlarni o`ziga yaqin olish, o`zgalar g`amini o`zinikiday deb bilish, inson qalbiga yo`l topish o`ksiklar yoki g`amzada ko`ngillarni ko`tarish, ular qalbiga malham qo`yish inson uchun qay darajada zarur bo`lsa ham, odamiylik burchi hisoblansa ham hammaning ham qo`lidan o`zgalarga g`amho`rlik qilish kelavermaydi. Buning uchun avvalo keng fe`l, daryo yurak, osmon qadar sahovat insonda mujassam bo`lmog`i kerak. Shoira Zulfiya "Har to`kisni tinglasang, ko`nglida bir armoni bor", Mir Alisher Navoiy hazratlari: "Mehr ko`p ko`rgazdim, ammo mehribone topmadim", Abdulla Oripov: "Endi bir samimiy do`st xam topsaydim, o`zim sanar edim baxtli, begumon" desalar, o`quvchida odamiylikka, yaxshilikka bo`lgan rag`bat shubxa girdobida qolar edi. Ammo shunday bo`lsa-da xalqimiz asrlar osha o`z shaxsiy manfaatidan el manfaatini ustun deb bilgan va shunga munosib bo`la olgan. Yaxshilik yo`li xamisha xalqimizning azaliy udumiga aylangan:

Yaxshi mening do`stim, yomon – yomonim,

Ammo yomonga xam otmam kamonim,
Siz aytgan haq yo`lda dadilman mudom
Elga sadoqatda kuchli imonim!
Shonu shavkat uchun ko`tarmadim jom,
“Yurt o`g`li, el o`g`li! – eng oliy bahom,
Yurtinga, elimga chang solsa g`anim,
Nomingiz takrorlab olgum intiqom.¹

Mehr – oqibat tushunchalari ota – ona va farzand o`rtasida dastlab shakllandi. So`ngra bu asta-sekin qarindoshlar va o`zgalarga munosabatda kamol topib boradi. Bu munosabatni she`rda kuylashni shoir o`zining bevosita burchi deb biladi.

Uning lirik qahramoni shunday tarbiya topganki, “yomonlig` aylanganga yaxshilig` qil”qabilida ish tutadi. Ya`ni uning nazarida dunyoda asli yomon odam yo`q, har qanday tosh yurakni ham yaxshilik deb atalmish malham bilan eritsa bo`ladi. Shoir yaxshilik har bir insonning bosh fazilatiga aylanishini istaydi. Bu istak yo`lida u jonni fido qilishga-da tayyor:

Yaxshilik! Seningsiz olsam bir nafas,
Xobimdan seningsiz tursam biror dam,
Yoshim sanasiga aslo qo`shilmas,
Qonim ham ko`zdagi o`tkinchi shabnam.
Ustozga tosh otgan padarkush misol,
Shogirdning kelajak ahvoli yomon,
Sen o`zing umrsan, imonsan, iqbol,
Seni unutganning yurgani yolg`on.²

Har bir insonning ijtimoiy burchlari mavjud. Lekin hech kim hech bir kimsadan yaxshilikni majburiylik asosida talab qilmaydi. Yaxshilik qila olish fazilati yurak ishi – qalb amri bilan bajo keltiriladi. Shoir Usmon Nosir o`z yuragida Vatanni sevishni, unga itoat etishni talab qilgan bo`lsa!

Itoat et, agar sendan,
Vatan rozi emas bo`lsa,
Yoril! Chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli tamom o`lsam.

Nuriddin Boboxo`jayev yurak mavzusini o`ziga xos talqin etadi. Uning oldiga Usmon Nosirday buyuk shoir aytgan fikrni takrorlab qo`ymaslik ham vazifasi tutar edi. Lekin u ham yurakka talab qo`yadi:

O`zganing baxtidan quvonsin, tolsin,
Kekdan xoli bo`lsin,
G`uborlardan pok
G`iybatlardan pok
G`iybat ostonasin sira bosmasin,
Nurdan oshyon qursin, o`stirsin idrok.
Oqni qora dog`dan farqlolsin dadil,
Befarq gupurmasin bo`lsin jonsarak,
Shunda men sanayman dilni nurli dil,
Shunda men atayman insoniy yurak!

Albatta, yurak oldiga bunday yuksak vazifani qo`ya bilish uchun inson o`zining ko`pchilik oldidagi burchini haqisha yodda tutmog`i kerak.

Har bir odam o`z hohishiga ko`ra el oldida o`zining burchni his etsa, yaxshi va ulug` ishlarni bajarishga o`zini mas`ul deb bilsa, odamiylik, mehr – oqibat tushunchalarini targ`ib etaverishiga ehtiyoj qolmasmidi?!

Biroq, ming taassufrotlar bo`lsinkim, biz hamon odamlar o`rtasidagi oqibat rishtalari tobora uzilib ketayotganidan tashvishdamiz, hatto Navoiy ham:

¹ Бобохўжаев Н. Ҳамиша борим онажон – Тошкент: - “Камалак” нашриёти 1995 йил 35-бет

² Бобохўжаев Н. Соғим отажоним – Наманган: “Наманган нашр” 1994 йил 82-бет

Odamiy ersang demagin odami,
Onikim yo`q xalq zamidin g`ami.

Deganlarida, qanchalik qayg`urdilar ekan. Ushbu misralar yozilganidan necha asrlar o`tgan bo`lsada hamon o`zining dolzarbligini yo`qotgani yo`q. eliga, halqiga fidoyi bo`lish, Vatan manfaatini o`z manfaatidan ustun qo`ya olish, faqatgina buyuk insonlargagina xos deyish xato bo`lar edi. Oddiy, sodda kishilar borki, ular uchun elga xizmat qilish odatiy holga aylanib qolgan. Nuriddin Boboxo`jayev asarlari qahramonlari dehqon, ishchi, shifokor, muallim, hofiz, talaba va hokazolar. Ular pokiza yurak egalari. Ular uchun yashashdan murod o`zidan yaxshi nom qoldirish. el nazariga tushish, yaxshilar davrasida bo`lish, yomonlarni tarbiyalab, o`z safiga tortish. Ularning orzusi shuki – bu ro`yi zamnda yaxshilar ko`paysa, yomon qolmasa. Lekin buning uchun shunchaki qo`l qovushtirib turishning o`zi kifoya emas. Eng shimarib, chin dildan yonib – quyib kurashmoq kerak. Chunki dunyo azaldan yomonlig` bilan yaxshilik o`rtasidagi bahsu kurashlardan iborat:

Baxillik, razillik duch kelmasa gar,
Qaydan singar edi dilga saxovat!
Bol qadri qaydaydi bo`lmasa zahar,
Istiqbol qaydaydi mehnatlarsiz, ayt!
Quvishib yashaydi azaldan, do`stlik,
Qorong`u bilan har tonggi ziyo,
Raqibim ko`p deya zorlanma do`stim,
O`zi kurashlardan yaralgan dunyo.¹

Inson o`zini tanishi, xatolarini, tan olishi, o`zi bosgan qadamlarini sarhisob qilishi, bekor o`tgan damlaridan afsus chekishining o`zi – bir fazilat. Bu insonning ichki dunyosiga, ya`ni ruhiy olamiga taalluqli narsa. Lekin mushohada qay darajada bo`lishi, esa uning bilimi, odobi, odamiyligi, voqealarga munosabatida belgilanadi. Hayot hodisalari to`g`risida o`ylash, ularni u yoki bu darajada baholash insonning odatiy yumushlaridan biri. She`rning lirik qahramoni ham dunyoga o`z nigohi ila boqadi. Uning qarashlari, xulosalari, voqealarni qabul qilishi, ma`qullashi, inkor etish mezonlari bor. She`rdagi lirik qahramon ruhiyati sirdan qaraganda bir muncha sodda ko`rinsa-da, bu soddalik tubida juda chigal murakkablik bor. Nega? Nima sababdan shunday? Buning boisi, hayotning o`ziga yarasha murakkabligida, aql bovar qilmaydigan sir-u sinoatlarida, odam ahlining bu olamdagi g`alati va ajabtovur xulqida, teran aql-zakovatida hamda unga ato etilgan noyob qobiliyatida. Xalqimizda “Olim bo`lish oson, odam bo`lish qiyin” degan maqol bor. Odobning kuch-u qudrati har qanday bilimdan ustun kelgani ko`plab rivoyatlarda aytilgan. Hayotiy voqealar misol sifatida keltirilgan. Bizningcha, shoir Nuriddin Boboxo`jayev avvalo ruhiy barkamollik tarafdori. Uning uchun insoniylik asosiy fazilat:

Insoniylik – sharaf, sadoqat – sharaf,
Rostlik, samimiylik – fazilat – sharaf,
Ibtido bor ekan, intiho ham bor,
Oz-ko`p umr uchun xush odat sharaf

Gap insonning fazilatlarini haqida ketar ekan, shoir odamdagi hokisorlikka alohida urg`u beradi. Hokisorlik kamtarlikning eng yuqori cho`qqisi hokisorlik – bu xorlik emas. Xokisorlik odamning qadrini oshiradi. Ko`pchilikning hurmatiga sazovor qiladi, elga tanitadi. Kibrliklarning dunyoqarashi tor, fikrlashlari sayoz. Ular ham olamni teran idrok etganlaricha yo`q. Umr – o`tkinchi, suvlar ko`chkinchi. Vaqt nurday shitob bilan eladi.

Demakkim, vaqt g`animatida odam oliyjanoblikni, hokisorlikni, ya`ni hulqni o`zida kamol toptirmog`ii kerak:

Malol olsa agar so`rashishni do`st,
Bilmoq istamasa insonlik qadrin,
Tong chog`i tursin-u yurib yalang to`sh,

¹ Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним. –Наманган: “Наманган” нашриёти, 1994 йил. 109-бет.

Bir bor kezib chiqsin odamlar qabrin.

Bizning nazarimizda bu inson umriga berilgan shoirona baho. Abdulla Oripov “Garchi fano har kimsaga azaliy bir qismatdir” degan bo`lsa, O`tkir Hoshimov “Dunyoni ikki eshik orasiga” o`xshatgan bo`lsa, Nuriddin Boboxo`jayev umrining vaqtinchaligini o`zgacha talqinda bera bilgan. Bu esa o`tar umrda nizo, buzg`unchilik, ig`vo, fitna va boshqa illatlar bilan yashagan ma`qulmi yoki insoniy qiyofani tobora mukammallashtirib kamolga etkazgan yaxshimi? Xulosa o`quvchining o`ziga havola.

b) ona timsoli:

1967 yili Nuriddin Boboxo`jayevning “Onajonim, onajon” she`ri “Gulxan” nomli respublika jurnalida chop etildi. Ayni qish chillasi. Qor erni ikki enlik qoplagan. Yana kapalak qor asta kuchaymoqda. O`sha kuni pochta keltirgan gazeta – jurnallar orasida she`r bosilgan “Gulxan” ham bor bo`lib, shoirning onalari Tursunxon aya farzandlari kelguncha, she`r bilan tanishishga ulgurgan edilar.¹

Har bitta so`zingizga
Chaqmoq bo`lib yugursam,
Bergan sut, tuzingizga.
Butun umrimni bersam,
Sizni boshda ko`tarib,
Quyoshga ko`z-ko`z qilsam,
Qaritmasdan yashartib,
Kaftimda olib yursam.....

Nuriddin Boboxo`jayev kechki payt uyga keldilar. Onaxonning sandallarida turshak, jiyda, mayiz. Sandal atrofida jiyanlar, farzandlar, qo`shni hovliga kelin bo`lib tushgan ikki nafar singil. Ularning barchasi o`z bilganicha ta`rif bermoqda, uni o`zicha tahlil qilmoqda. Onaxonning kayfiyatlari ko`tarinki, yuzlaridagi nim tabassumni imkon qadar yashirish harakatida. Kuni kecha bolalik o`yinlari bilan mashg`ul farzandi bugun el nazaridagi inson bo`lib etishibdi. O`sha kun onaga quvonch hadya etdi. Qarangki, o`g`il onasi butun respublika miqyosida ulug`lasa! Bundan ortiq baxt bormi ona uchun! Dunyoda har qanday ona ham farzand kamoli uchun qayg`uradi, uning istiqbolidan quvonadi. Ne baxtkim, o`sha kuni onaxon baxtiyor va masrur edi. Nabiralarning biriga she`rni o`qitishdi. Shundan so`ng ona o`g`lini uzunda – uzoq duo qildi. Taqdirni qarangki, o`sha yilning kuziga borib ona vafot etdilar. She`r esa onaxondan yodgorlik sifatida qoldi....

Dunyo o`zi shunaqa. Shodlik bilan qayg`u doimo yonma – yon. Biri kelib, biri ketadi. O`sha yillari Nuriddin Boboxo`jayev yozish uchun emas, ona qalbiga yo`l topish uchun, uni bir dam bo`lsa-da xushnud qilish uchun (onalari g`oyat savodli ayol bo`lib, Qur`oni Karimni sharhlay olar edilar) o`sha she`rni yuzaga chiqargandilar. Otaning rozi – rizoligidan so`ng ona rizoligini olish Nuriddin Boboxo`jayevning o`sha yillardagi bosh maqsadi bo`lganini uning qadrdonlari, aka-opalari ko`p bor ta`kidlashgan. Shu boisdan shoir ijodida keyinchalik bu mavzu atroflicha yoritildi. Bolaning ham ko`ngli onada ekanligiga shoir ko`p bor e`tibor qaratdi. To`g`ri, ayrim she`rlarda o`ta sog`inish, qayg`u ayriqliqqa dosh bera olmaslik hislari ko`payib ketsa-da baribir o`sha she`rlarda ham onaning farzandga bo`lgan mehri o`z ifodasini topaverdi. Onaning ta`rifu tavsifi asrlar osha tarannum e`tilmoqda. Bu xuddi Vatan kabi o`lmas mavzu. Bu misoli hayotdayin abadiy, Vatanday aziz! Bu so`z ma`nosini sharhlashga qalam ojiz. Uning zamirida chuqur mazmun yashirish. Olamda onaday mehribon, onaday munis, onaday g`amho`r inson topilmaydi. Ona borki, bu ro`yi zaminda hayot charxpalagi aylanaveradi. Onaday muqaddas, onaday tabarruk, onaday aziz va xokisor hamda purviqor, beg`araz, samimiy, oqko`ngil, xolislikda tengsiz zot yo`qligini bu hayotning o`zi tasdiqlagan. Ona mehri huddi quyoshning erga sochayotgan xayotbaxsh nurlaridek, tuproqsiz daraxtlar o`smaganidek, onasiz farzand ham o`smaydi. Onasiz muhabbat, oila, sevgi, baxt, avlodlar ulg`ayishi ham bo`lmaydi: Ayolni tiriklik rishtalarining davomchilari desak, xato qilmagan bo`lamiz. Onalar mehri cheksiz,

¹ Boboxo`jayev N. Xamişa borim onajon – Toshkent: “Kamalak” nashriёti. 1995 йил. 14-бет

qadr, borasida esa tengsiz. Dunyoda yaxshi yoki yomon odamlar bo`lishi mumkin. Ammo yomon ona xech qachon bo`lmaydi. Axir bejizga aytilmagan: “Jannat onalar oyog`i ostidadur”. Onalar Hamisha jannatidirlar. Ularga tomirda oqayotgan qonimiz, olayotgan nafasimiz, bosayotgan qadamimiz olqishlar aytadi. Butun umrimizni onalar qoshida o`tkazsak, ular xizmatini bajarsak ham oz:

Dilimda hamisha borim, Onajon!
Siz mening faxrimiz, faxrim, Onajon!
Sizdan so`z boshlasam ko`ksim tog` bo`lib,
Bahrim ochiladi, bahrim Onajon!
“Ko`z ochib dunyo”da borligim zamon,
Dastlab sizni ko`pdim, Sizni Onajon.
Shundanmi ushoqday kichik, tuyulur.
Sizning qarshingizda butun bir jahon.¹

Nuriddin Boboxo`jayev qalami ko`p bora onalar haqida so`z yuritgan. 1976 yili «G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at» nashriyotida bosilgan “Umid niholi” she`rlar to`plamida ham onaday mukarram zotni ulug`lagan she`rlar ko`p edi.² Shoir nafaqat hayotda, balki ijodda ham onaga bo`lgan ehtiromini izhor qilgisi keladi:

Jahon yaralganmi va yo avval siz,
Sizsiz jahon qayda, ko`karish sizsiz,
Qanoat, muhabbat, g`azab qudrat ne,
Rosti gap, onajon, oq sutingizsiz.
Dunyoni ko`zimga keng ko`rsatgan - Siz
Qo`lim kaftga olib yo`l o`rgatgan – Siz,
Yo`l bilib, dunyo keng deganim bo`lgan
Tilsiz kim bo`lardim, til o`rgatgan – Siz!

Shoir onalarning buyuk xizmatlarini she`rga solgisi keladi. Misralardan onalar haroratini, mehri yog`dusini sezilayotganday. Onani ardoqlash, uni quvontiradigan yumushlar bajarish, bir chimdim iliq so`z ilar qalbiga orombaxsh etishga farzand ishtiyoqmand:

Qancha mehr sezdim, muhabbat sezdim,
O`zimcha tengi yo`q sadoqat sezdim,
Bari – ku baxtday gap, lekin Onajon,
Sizdagi ilinjda zo`r qudrat sezdim.³
Yosh edim sezmasdim o`rningiz nechuk,
Chekkan zahmatingiz, sehringiz nechuk,
Yig`lab – yig`lab o`g`lim uhlatmagan kun,
Dilda uqib etdim mehringiz nechuk.

Ona zimmasidagi zaxmat so`ngsiz mehnat, kechalardagi bedorlik, ro`zg`or tashvishlari, farzand injiqliklarini keng fe`l bilan ko`tara olish – bularning bari shoirning sinchkov nigohidan qochib qutulmaydi. Shoir misralar shodasiga bularni ham tizgisi keladi:

... Yo`q, yo`q, Siz – quyoshsiz, quyosh bezavol,
Siz borsiz, ko`klam bor, onajon, iqbol,
O`lkam quyoshiston deya nom olgan,
Borsizki, yorqindir bizning istiqbol,
Odamlar koriga yaragan kunim,
Quvonch ummonida yayragan kunim,
Tushlarimda hatto shod ko`rsam sizni,
Mendan baxtli yo`q deb sayragan kunim!⁴

¹ Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил 32-бет.

² Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил

³ Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил

⁴ Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил 32-бет.

Shoira Zulfiyada “Ona qalbi oyoqqa tursa, o`g`lim, sira bo`lmaydi urush” degan ajoyib satr bor. Shoir Nuriddin Boboxo`jayev ham onani madh etar ekan, faqat tor doiradagina cheklanib qolmay, balki umulashma xulosalar ham chiqaradi. Mavzuni tinchlikka, ona Vatanni ulug`lashga qarata oladi:

Tinchlikka, Onajon, onalar asos,
Lekin askarlikka tug`magansiz rost,
Vatanni onam deb bilganim uchun,
Askarday Vatanga qo`yganman ixlos!¹

Shoir misralarida Ona obrazini yaratar ekan, sodda, mehribon ona siymosiga chizgilar chizadi. Shoir hayolidagi ona uchun farzandi kamolidan, uning porloq kelajagidan ortiqroq baxt yo`q! Ona shu baxtni ko`rayin deb butun umrini o`tkazadi. Hayotning eng shirin damlari farzandini ulg`aytirishga sarfladi. Farzand yosh ekanida dastlab buni sezmaydi. Hayot saboqlari shuni ko`rsatadiki, dunyodagi eng rostgo`y, eng samimiy inson – Ona ekan. Do`st xiyonat qilishi mumkin, yaqinlari aldashi mumkin. Biroq Ona hech qachon farzandiga hiyonat qilmaydi. Uni o`z manfaati yo`lida aldamaydi. Buni anglab etgan farzand dilida yana hislar ummoni jo`sh uradi:

Shu chog`dan Onajon bir chimdim bitdim,
Bir chimdim ummon deb qo`shiq yaratdim.
Agar siz zehninga nur qo`shmasangiz,
Misralarda mehrim qandoq aytardim!
Nomi farzand borki, yuragida – Siz,
Dilida, tilida, tilagida – Siz,
“Onajon” degan so`z barhayot ekan,
Quyosh o`zingizsiz, quyosh o`zingiz.²

Ona bizga shu yorug` olamni in`om etib, bizni eru ko`kka ishonmay avaylab katta qilgan, oq yuvib, oq taragan. Insonning o`zi er yuzidagi bir mu`jizadur, lekin onalarimiz mo`jizadan ham mo`jizali ajoyib hilqat ekanliklariga shak – shubha yo`q. Shoirning har bir to`plamida kamida 5-6 ta she`r ona haqida. Uning betakror fazilatlarini to`g`risida.

Ey mehribon validam, hech ko`ndirmay dilda g`am
Sodiq dastyor va hamdam, madingiz bo`laymi?
Bir so`zga ming yugurib, mehrim cho`g`da yo`g`irib,
Yovlardan Vatan qo`rib, suvoringiz bo`laymi?³

Farzand tog`larni qo`porishga, daryolarga belbog` solishga, ona barpo etayotgan bog` uchun anhor bo`lish istagida. Agar ona buyruq bersa, uning bitta so`zi uchun ming yugurishga, Vatanni yovlarda asrashga, onasi bilan faxrlanishga, onaning orzularini ro`yobga chiqarishga behad orzumanddir. Shoirning ko`pgina misralariga orzu – istaklar shodasi deya tavsif bersak to`g`riroq bo`lardi. Har holda samimiy hislar egasi bo`lgan farzand ona oldida o`zini behad qarzdor deb his qiladi.

Dunyodagi eng benuqson inson deya onasini biladi:

Ona yozibsizki, “O`g`lim, dilbandim”,
Meni unutdingmi, xat yozasan kam,
Tunlar uxlay olmay chiqaman ba`zan,
Garchi hozir zamon tinchlik bo`lsa ham.
Qanday farzandmangki, unutay sizni
So`zlashdan qolmasmi, siz baxsh etgan til!
Hurmat, Muhabbatdan, Kurashdan, Hisdan
Judo bo`lmasmikan orzu to`la dil!

Shoir she`rlaridan tuyg`ularda biz anchayin mayinlikni, sokinlikni, ta`bir joiz bo`lsa jimlikni tuygandek bo`lamiz. Ona haqida, onaning qalb kechinmalari, onaning yumushlari,

¹ Шу асар.

² Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил 32-бет.

³ Шу асар.

onaning hayotga munosabatlari, onaning yumushlari, ona qadru qimmatini, mehru – muruvvati haqida shoir juda sokinlik ila soʻz boshlaydi:

Eylayman, onajon sogʻinganimda
Yoshlik onlarini, shoʻhliklarimni
Baʼzan soʻzga kirmay sizni qiynagan,
Oʻchmas iz qoldirgan qiliqlarimni!
Askarlik xizmati – qoʻlim juda band,
Shu sabab kechikdi, Onajon, xatim
Qalbimda, xobimda, maqsadimdasiz.
Siz-u Oʻlkam bilan baxt – saodatim.¹

Misralardan misrga koʻchgani sari bu sokinlik koʻtarinkilik bilan sugʻorilgan mayinlikka almashadi. Shoir ona haqida soʻz ochar ekan, koʻpolroq fikr yurgizmaslik uchun ataylab shunday usul tanlagandir. Ijodkor oʻzi bildirishni koʻzlagan niyat oʻz taʼbiricha, boshqacharoq ifdalashni koʻzlagandir:

Koyimang, onajon, gʻam qilmang sira,
Uxlagin deb meni qistamang ham hech,
Dardimni toʻkmasam dil boʻlar xira,
Shu dardim tufayli kech yotaman kech.

Xoʻsh, farzand uxlamasligiga sabab boʻlgan dardning oʻzi ne? Nega u Onaday ulugʻ zotning mehribonligiga qaramay bedor? Onaning koʻnglidagi gʻashlikni aritish uchun ertaroq uyquga yotsa boʻlmaydimi? Shoir sheʼrni savoldan boshlab javob bilan tugallaydi. Uning dardi sheʼr ishq. Sheʼr bahona odamlar qalbiga yoʻl topish, onalarning jahondagi bor fazilatlarini misralarda aks ettirish. Qolaversa, farzand bedorlikni Onasidan oʻrgangan. Axir, onalar oʻzi – ku tunlarni bedor kechirib, farzandning qoshida tonglar ottirgan. Axir, onalar – ku, goʻdak yigʻisiga, injiqliklariga oʻz sabru qanoati bilan dosh bera olgan. Lekin shunda ham bechora ona oʻgʻlini ayaydi. Uni bir nafas boʻlsa ham orom olishga chorlaydi. Farzand esa sheʼr dardida yonadi:

Siz bergan sut bilan singgan bu dardim,
Bundan kecholmayman, kecholmayman hech,
Bedardning kimga ham nafi tegardi!
Dardim sevganim – chun kech yotaman, kech,
Oʻtsa ham mingdan ming tunlar beuyqu,
Yor boʻlsin, onajon, shu dardim mangu.

Ona soʻzi tilga olinar ekan, har qanday odam qalbida oʻzgacha tuygʻular tugʻiladi. Onaga nisbatan chuqur minnatdorchilik, muhabbat, hurmatu ehtirom va, asosiysi, koʻz oʻngimizga eng qadrdon va gʻamhoʻr kishi keladi. Aslida onaga boʻlgan mehr – muhabbat tuygʻusi yaxshi tarbiyaning mevasi hisoblanadi. Onaga boʻlgan hurmat va muhabbatni yoʻqotish esa insonning maʼnaviyatsizligiga dalolatdir. Adabiyotda onani xoʻrlagan, unga bepisand munosabatda boʻlgan farzandlar obrazi koʻplab uchraydi. Bu farzandlarning aksariyati, onani qadrlamagani uchun zavolga yuz tutadilar. Ularning xatti – harakatlari asar mazmunidan kelib chiqqan holda qoralanadi. Onalarning koʻz yoshlari hech qachon farzand dogʻi bilan oqmasin deya orzu – istak bildiriladi. Onaga nisbatan mehribon boʻlish, unga chiroyli muomala qilish odobi targʻib etiladi. Onalardagi sabot, bola tarbiyasi jarayonidagi qiyinchiliklarni engib oʻtmishdagi mashaqqatlar jarayoni aks ettiriladi. Ona oʻzining hatto eng “yomon” farzandiga ham boʻlgan ishonchini yoʻqotmaydi. Uni qachonlardir yaxshi odam boʻlishiga komil ishonch bilan yashaydi. Hayotdan moʻʼjizalar yaratishga faqat onalargina qodirligi oʻsha asarlarda oʻz ifodasini topgan. Onalardagi talabchanlik va qatʼiylik mehr bilan almashinib ketadi. Onalik hislari oʻzining gʻalati, misli koʻrilmagan begʻuborligi bilan ajralib turadi. Ona mehri, muhabbatni oʻta kuchlidir. Uni hech qanday mehrga qiyoslab, solishtirib boʻlmaydi. Hatto ona yaxshi ona boʻla oladimi, bolasini toʻgʻri tarbiyalaganmi, uni koʻproq mehri bilan taltaytirib yuboradimi, bundan qatʼi nazar – ona onaligicha qolaveradi. U benazir xilqat. Uning mehr bulogʻi hech qachon qurimaydi. Lekin shu

¹ Бобоҳўжаев Н. Ҳамиша борим онажон. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 1995 йил 3-бет.

o`rinda bir jihatga yana diqqatimizni qaratsak, Nuriddin Boboxo`jayeov ijodidagi ona siymosi ham farzand obrazi ham ijobiy holda tasvir etiladi. Bunga sabab nima? Bizning fikrimizcha, shoir onaga bo`lgan hurmatini farzand fikri orqali ifodalashni maqsad qilgan bo`lsa, ikkinchidan, yaxshi onaning farzandi hech qachon yomon odam bo`lmaydi. O`zining yaxshi qismati uchun onasidan minnatdor bo`la olishga ham yaxshi tarbiya, odamiylik juda – juda zarur. Shoirning aksar she`rlarida farzand onasini quvontirish uchun jonini fido qilgisi keladi. Ulg`ayib voyaga etgach, o`zini deb onasi chekkan zahmatlarni aritish uchun ilk maoshidan onaga oppoq dokaro`mol hamda xushbichim ko`ylak sovg`a qiladi. Shoir nazdida esa gap ro`mol yoki ko`ylakda emas. Gap farzand kamolida:

Olib kelganida ilk maoshidan
Oppoq dokaro`mol,
Xushbichim ko`ylak,
Ona shodon bo`ldi o`g`li ishidan,
Joy topilmay qoldi o`zin qo`ygudek,
Kipriklari ichra yiltiradi dur,
Uzoq ko`rmaganday bosdi bag`riga
Dili ravshan bo`ldi,
Yuzi to`la nur,
Shukur qildi shunday o`g`li boriga
Ona kiprigiga ko`ndirolgan yosh,
Na ro`mol, na ko`ylak havasi, sehri
Farzandi – go`dakmas, farzandi quyosh
Nurga g`arq etgandi shu farzand sehri.

Aynan o`sha kuni onaday baxtiyor inson bo`lmasa Kerak dunyoda! Faqat onagina farzandi yutuqlarini quvonch bilan qarshi oladi. Unga sidqidildan xursand bo`ladi. Axir shu ediku, ona muddaosi, axir shu ediku farzand kamolini ko`rish orzusi o`sha orzuning ro`yobi ona kiprigidagi tomchi – tomchi yoshlar bo`lib ifodalanadi. Chunki bu ona ro`mol yoki ko`ylak havasmandi emas. Uning farzandiga ko`rsatgan mehridan mehr qaytganining o`zi mehnatlar, uyqusiz tunlar samarasidir. Nuriddin Boboxo`jayeov she`rlaridagi ona siymosi nurga yo`g`irilgan, yoshi ulug`, farzandlari qadamidan mamnun, yaqinlari orasida yuzi yorug` onalar obrazidir. Bu ona uchun farzand shunchaki farzand emas. U, avvalo, oila tayanchi, Vatan posboni. Yurtiga, xalqiga, ota-onaga sadoqatli o`g`li. Uning bilimi, tarbiyasi, unib – o`sayotganda qat`iyat bilan nazorat qilingan. Bunday farzandning yomon bo`lishi umuman tasavvurga sig`maydi. Shoir onasi bilan farzand o`rtasidagi munosabatni shaffof holda hech qanday dog`larsiz, xatolarsiz ko`rishni xoxlaydi. Bu orzu misralardan misralarga, bu she`rdan boshqa bir she`rga ko`chadi. SHoir odamiylik burchlari orasida eng zaruri va birinchisi farzandlik burchi ekanini she`rlarning g`oyaviy mazmuniga singdirib yuboradi. Inson agar farzandlik burchini sharaf bilan bajara olsa, unda ona- Vatanga, xalqiga sadoqat tuyg`ulari mavjud bo`ladi. Unday farzand Hamisha ko`pchilikning e`tiboriga, xurmatiga loyiq. Lekin shoir idealilagi farzandning onasiga bo`lgan mehri qandaydir manfaat yo`lida emas, beg`araz va o`ta samimiydir. Unga bu mehr sut bilan singdirilgan. U onaday ulug` zotga xizmat qilishdan faxrlanadi:

Qanday so`z aytsamkin, sizga, Onajon!
Yo boqsam bo`larmi izga Onajon!
Erda mitti izim qo`ygunigacha,
Tilim biyron bo`lib ungunicha,
Nami qotguncha yo`rgaklarimning,
Eti qotgunicha ko`kraklarining,
Tishim tushib chiqib, kirguncha aqlim,
Qabul qilguncha safiga xalqim,
Hisobsiz qovrilib yonganigiz bor,
Shirin uyqulardan tonganingiz bor.

Shoir nazdidagi farzand hamisha, har qanday vaziyatda ona uchun, xalqi va Vatani uchun xizmat qilishga tayyor. Bu xizmatlarsiz u o`zini xech qachon odam qatoriga qo`shmaydi. Demak, shoir tasvirlagan farzand obrazi – biz yoshlar uchun doimo o`rnakdir. Kamchilik tushunchasi nuqtai nazari bilan qaraganda bu jixat har bir odam uchun juda kerakli. Ona siymosini Nuriddin Boboxo`jayev faqat she`rlari yoki dostonlarnida yoritgansi yo`q. U “Onalarni sharaflaylik” badiasida, “O`zing ko`zim nuri” dramasi ham Ona obrazining chizgilarini to`laqonli berishga intildi. Ayniqsa! “O`zing ko`zim nuri” dramasi To`fa xola (aslida Toifa xola) timsoli juda jonli va xayotiy chiqqani bilan e`tiborga molikdir. Biz imkon qadar ushbu tadqiqotimizda “O`zing ko`zim nuri” dramasi to`htalamiz. Bu erda o`rni kelgani uchungina ona siymosini eslatib o`tdik, xolos. Umuman, asar qahramonini ifodalashda Nuriddin Boboxo`jayev misollarni o`zi ko`rgan, bilgan xolatlardan kelib chiqib ifodalashini kuzatamiz. Shu o`rinda uning “Onalarni sharaflaylik” nomli asarini eslashni lozim deb topdik. Chunki bu asardagi ona timsoli alohida ahamiyatga ega. 1976 yili ushbu asar respublika miqyosidagi tanlovda III o`rinni olganligi ham ijodkorning yutuqlaridan biridir. Asardagi ona timsoli o`zbek ayolining juda ko`p qirralarini o`zida jamlay olganligi bilan xarakterlidir. Bu ona obrazi shoir she`rlarida ona siymosidan hech bir sifati bilan aslo qolishmaydi. Bu ona nafaqat uy yumushlari doirasida o`ralashib qolgan ayol, u jamiyatdagi faol xotin – qizlarning umumlashgan obrazi darajasiga ko`tarila olganligi bilan alohida xususiyatga ega. Lekin undagi go`zallik, odob, mayinlik, bolajonlik va munislik kabi xususiyatlari jamuljam holda uyg`unlik kasb eta olgan. Onalardagi muhabbatning samimiyligi alohida e`tibor bilan kuylanadi:

“Ancha yillardan buyon uyimizda bir nasiba kam, bir mayin sharpa, bir yoqimli sado etishmaydi. Bolalarim onasiga talpinib yayraganda ham, tuyqusdan boshim og`rib qolganda ham, kichik bir talabamdan boshim osmonga etib kelganimda ham, ariq bo`yida yuz yuvayotganimda yoxud safarga otlanayotganimda ham o`rningiz bilinadi, onajonim! Siz butun umrini, barcha rohat – farog`atini farzandlarga ato etgan buyuk siymo ekanligingizni endi chuqurroq his etyapman. Izingizda hayot borligini, so`zingizda – ko`zimngizda ma`no to`laligini, ta`qiblaringizda mehr yotishini endi, endi sezyapman!”

Ustozda burchga e`tibor, burch mas`uliyatini sezish hissi juda kuchli edi. U farzand sifatida onasi oldidagi burchini chuqr his etadi. Onani xotirlash, uni yodga olish bilan birga o`zi uning qoshida qarzdorligini bir lahza bo`lsin unutmaydi:

Bir donishmand: “Ona muxabbatigina beta`ma bo`ladi, deb haq aytgan ekan. Aytaylab keltirgan atir nokimdan o`zingiz emay, nabirangizga edirganingizni, munosib mato tutganimda kelingizga ilinganingizni, arazlab choy ichmay ketgan kunlarim tomog`ingizdan ovqat o`tmay kutganlaringizni eslasam, o`sha donishmandning haligi gaplariga astoydil qanoat hosil qilaman, ona muhabbati va sexrining qiyosiga teng qiyos topolmay qolaman”.

Ijodkor onaning chizgilariga tashbeh axtarar ekan, o`sha o`xshatishlari onaday samimiy, onaday yoqimli sodda va chiroyli bo`lishiga e`tiborini qaratadi. Bu o`rinda publitsistikaning talablaridan biroz chekingan bo`lsada onani tavsifyalashida o`ziga xos yo`lni tanlaydi: “Na bir bisot, na bir sharaf, na bir vazifa, shon onaning bir borgi tabassumiga arziydi. Nogaxon bemor bo`lib qolsa butun umrini sarf etganingda xam loqal bir borgish shirin uyqudan kechib beshik tebratgandagi oniga teng xizmat sanalurmi! O`rtanganda, o`rtanganda istima olganda qovurilganiga qaysi mehrni taqqoslab bo`ladi!

Ona qalbidan buyuk, ona mehridan tiniq nima bor?

Darhaqiqat, ijodkorning onaga nisbatan qanday mehr tuyg`ulari bo`lsa, barchasi qog`ozga to`kilib, uning yuragidagi sog`inchini, armonini ozgina bosganday bo`ladi. Umuman olganda ustoz ijodida ona mavzusi juda ko`p qalamga olinganligini kuzatishimiz mumkin.

v) ustoz timsoli:

Nuriddin Boboxo`jayev she`rlarida, hikoyalarida ma`rifatni ulug`lash, ustoz siymosini yoritish alohida o`rin tutadi.

Tishim tushib men bag`ringga otilganimda
Yashirmayman, alg`ov-dalg`ov edi qadamim.
So`zlash nima? – “Alifbe” dan ilk bilganimda,

Ko`zib chaqnaq talpinganman senga, maktabim!
Hayot nima, odam kim u – qadridan saboq,
Ummon – ummon ta`limlardan yashnadi qalbm.
Sen orqali nurli bo`ldi menga xammayoq,
Nurli chashmam, mayog`im xam o`zing maktabim.

Unda maktab va seni o`rganishga undash g`oyalarini ko`p xollarda kuzatish mumkin. Uning nazarida maktab –muqaddas ilm dargoxi. Bu dargoxni ardoqlash va unga ta`zim bajo aylash minnatdorchilik tuyg`ularini izxor etish shoirlarning bevosita burchidir:

Oddiy ishchi, olimlikmi – bizda muqaddas,
Sharafingdir mening elga, senga yoqqanim,
Mehnatim – la pok nomingni pok saqlasam bas,
Bedog` Vatan, sirli dunyom, qutlug` maktabim!¹

Nuriddin Boboxo`jayev hamisha ustozlari hurmatini joyiga qo`ya olgan inson edilar. Bu jihat uning ijodida xam yaqqol seziladi. 1998 yili “Namangan” nashriyotida chop etilgan “Dilimdagi chiroqlar” kitobida ustozlarga aloxida ehtirom bildiriladi. Ularning mehru saxovati, qilgan mehnatlari qalamga olinadi. Nuriddin Boboxo`jayev ustozlar baxona o`zi ta`lim olgan Farg`ona va u erdagi dorilfunun xaqidagi fikrlarini ko`pchilik hukmiga xavola etadi. Shogird nazarida ustozlar mehri tufayli ular qadami dadil, boshlari tik, so`zlari burro. Ustozlardagi nafaqat bilim, balki odamiylik sabog`i ham shogird uchun ibrat.

“Darhaqiqat, Farg`onam, senga kimlar qasidalar bitmagan! Kimlar, qaysi zukko olim va donishlar seni sog`inch satrlariga bosh sarlavha qilib ko`tarmagan! Qaysi iqtidor egalari hozircha talabayu, kelajagi, kashfiyoti, dong`i olislari qucha oladigan tinglovching timsolida sening ta`rifinga sabab axtarmagan!”

Shogird, avvalo onajon Farg`ona, so`ngra esa qadrdon o`quv dargoxini ulug`laydi:

“Yoshman, o`smiringman. Derazangdan kirgan nur yana ham bir quyosh bo`lib, istiqbolimga mangu ko`zgu bo`lib, dilimni, shuurimni, xonadonimni, xonamni yorityapti. Ustozlarim ta`limi rag`bat va o`rinli pandlari hali-ham yodimda sado bo`lib, safo, va vafo bo`lib, yo`l boshlovchi o`chmas charog` bo`lib chuqurroq singaveradi idrokimga! Sen bergan ta`lim bilan, sen baxsh aylagan bag`r bilan men ham qiriq olti yil ustozlar izida, ustozlar safida nafas oldim. Fan olamiga kirganday, ijodiy bog`da ozmi – ko`pmi mevali daraxtlar etishtirganday bo`ldim”.

Shogird o`z dil so`zlarini to`kib solar ekan, mamnuniyat bilan, faxru g`ururini yashira olmaydi:

“Dorilfununim, yo sening bag`ring, keng, yo Ustozlarimning! Kenglik, kechirimlilik senday dargohga, oliy qalbga xos fazilat. O`zi qaynoq qalb o`jar bo`ladi, deyishadi. Axir, shu o`jarlik va hududsiz sho`xliklarim avjiga minganda ham haqiqiy ustozlarim bag`ri muzliginimas, haroratni sezganman, mehrilari omuxtaligida toblanganman, saboq maktabim, buyuk murabbim!”

Shogird o`zining baxtli taqdirida, odamiylik sifatining o`zida kamol topishda, ozmi – ko`pmi oqu qorani tanish, yaxshi – yomonning farqiga borishda Farg`onani, undagi muazzam va mehnatli maskan – ziyo o`chog`i bo`lmish – Dorilfununning katta xizmatlari bor deydi. Buning qadriga etish, unga nisbatan doimiy mehr izhor etishga har qachon burchli ekanini aytadi. U dorilfununda ko`rgan – bilgan ulug` kishilar nomini sanar ekan o`sha dargohda ko`p bo`lgan G`afur G`ulom, Oybek, Asqad Muxtor, Shuhrat, Zulfiya va ulardan bir umrlik saboq olgan kursdosh va tengqurlari Oxunjon Hakim, Yo`ldosh Sulaymon, Mufat Mamatov, Odiljon Nosirov, Salohiddin Mamajanov, Xoldorjon Quronboev kabi taniqli olim va shoirlar borligidan juda quvonadi.

Inson ruxiyati Hamisha ezgulikka tashna. Bu tashnalik sabab odam hayotida o`zi uchun ibrat namunasini izlaydi:

¹ Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним – Наманган: “Наманган” нашриёти, 1994 й, 180 б.

“Men ona tilimizning boyligi va sehriligi va sehrini singdirgan zukko ustozimiz G’anijon aka Abduraxmonov darslaridagi ta’limlarini yozsam, balki kitob bo’ladi. Ammo boshqa bir ibratlari borki, bu ham ta’lim va ma’naviyat bilan bog’liqdir.

“Dekabrning so’nggi haftalari edi. Ustoz onalarini Toshkentga – shifoxonaga olib ketganliklarini bildik. 31-dekabr kuni, hamma yangi yilni kutib olish taraddudi bilan band bo’lganda, Ustoz ochiq yuk mashinada volidai muhtaramalari jasadlari yonida markazdan Farg’onaga yo’l oladilar. Qor uchqunlari, izg’irin... O’zlari taklif etilgan kabina ichida kelsalar bo’lardi, yo’q. Axir, so’nggi daqiqada yolg’iz qoldirish... Farzandlikning bunaqa oliyjanob irodasi ota-onaga xizmatda ibrat timsoli bo’lib yillar o’tgani sari dilimizdan o’chmaydi”.

Shogirdga ustozning bu darajadagi etukligi qattiq ta’sir etadi. U endi saboq berayotgan ustozlarining nafaqat bilimiga, balki insoniyligiga ham sinchkovlik bilan e’tibor qaratadi. Dorilfununni ulug’lash, ustozlariga ehtirom izhor qilish orqali shogird o’sha paytdagi Farg’ona bilan bizni tanishtiradi. Ayrim ibratli lavxalarni keltiradi. Bag’ri keng ustozlarning mehr chashmasidan bahramand bo’lgan yillar uning uchun eng aziz va eng dorilomon paytlar edi go’yo. Axir, bekorga talabalik oltin davrim deyilmaganku. Ayniqsa, ulug’ ustoz Hasanali Rustamovdagi odamiylik, bilim darajasining yuksakligi haqida shogird to’lqinlanib yozadi. Ustozni xuddi otaday aziz, otaday tabarruk ekanini ta’kidlaydi. Shu o’rinda joiz bo’lmasada, bir narsani aytib o’tsak. Farg’ona dorilfununining taniqli olimi Hasanali Rustamov bilan Nuriddin Boboxo’jayev bir umr bordi – keldi qilishdi. Bir – birlariga suyanchiq va madadkor bo’ldilar. Bu ham ustoz va shogird o’rtasidagi mehr – oqibatga misol bo’la oladi. Umuman olganda, Nuriddin Boboxo’jayev ijodidagi adabiy qahramon ruhiyatidagi chizgilar ijobiylik kasb etganligini yana bir bor ta’kidlashni istar edik.

Bu ijobiylik zamiri muallifning hayotga, odamlarga munosabati, o’zi boshdan kechirgan voqealarga bo’lan mehr – muhabbat bilan qarashlari yotadi. Nuriddin Boboxo’jayevning o’zi doimo ko’pchilik e’tiborida bo’ldi. Mudom ustozlari va shogirdlari ardog’ida yashadi. Uning o’sha paytdagi namanganning aksariyat odamlari tanir va doimo izzat – ikrom qilishar edi. Shu boisdan bo’lsa kerak, uning asarlaridagi ijobiy qaxramonlar ko’p uchraydi va ular hamisha hayotga mehri va umid ko’zi bilan qaraydilar. Nuriddin Boboxo’jayev inson ruhiyatini ifodalar ekan, o’zining shaxsiy kuzatishlariga, boshidan kechirganlariga ko’proq urg’u berishini ham sababi shu. Shu o’rinda yana bir nuqtaga ham e’tibor bersak, yozuvchi Abdulla Qahhorga Ozod Sharafiddinov shogird edilar. Nuriddin Boboxo’jayev esa bir umrga Ozod Sharofiddinovga shogird va qalin do’st bo’ldilar. Ular o’rtasidagi inoqlikka havas qilsa arzir edi. Adabiy asar yaratish, ijobiy qahraman siymosini chizishda. O. Sharofiddinovdan turli maslahat va yo’l – yo’riqlarini olgani bejiz emas. Lekin Nuriddin Boboxo’jayev o’z tabiatidan kelib chiqib, she’r yoki boshqa asarlarida ko’proq ijobiy qahramon suvratiga urg’u berdi. U o’z qahramonlarini hayotidan oldin ularga she’rda jon baxsh etdi. Bu degani ijodkor hayotdan faqat nusxa ko’chirdi degani emas. Balki u qahramonlarini umumlashma obraz darajasiga ko’tara oldi. Bu holni biz ko’proq Nuriddin Boboxo’jayev hikoyalarida ko’ramiz. Hikoyalarining mavzusi ko’lami xilma – hil. Bu asarlaridagi voqealarning aksariyati o’tgan asrning 70-80 – yillarida kechadi. Ana voqealar orqali biz xayotning rangin qirralarini ko’rishdan tashqari qahramonning ruhiyati o’ziga hosligi bilan e’tiborga sazovor. Hikoya qaxramonlari tili sodda, xalq iboralariga to’la. Ular xatti –harakatlari sun’iylikdan, yasamalikdan holi. Yozuvchi iloji boricha lo’ndalik, qisqalikka intiladi. Ortiqcha bayonchilikdan qochadi. Ma’lumki, ilgari Namangan shahridagi aksar hovlilar keng bo’lib, bog’ – rog’lardan iborat edi. Odamlari sohibkor, mirishkor edilar. Yozuvchining aksar qahramonlari ana shunday oddiy mehnat bilan kun kechiruvchi kishilar. Ularning fikrlash tarzi ham kasb – korlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Odamgarchiliklari juda baland. Ular har qanday insonning qadriga etadilar. Odamni odam o’rnida ko’radilar. Ularning maqtangudek boyliklari ham yo’q. Ammo ularda shunday ketmas davlat borki, bu ularning samimiyati, qalbi pokligi, mahalla ko’yi, tanish – bilishi, hamkasblari hurmati – e’tiborini qozonganligi. Mehnat bilan kun ko’rishi. Mehnatning nomi bilan bola – chaqa boqishi. Halollikni o’ziga doimiy odat qilib olganliklarini o’zlari ham sezmaydilar. Chunki halol – rizq topish ularning kundalik yumushlariga aylanib ketganligi uchun

ham u ularga zinhor bilinmaydi. Ammo zukko o`quvchi bunga darhol e`tiborini qaratadi. Bu qahramonlarning beg`ubor tuyg`ulariga havas nigohi bilan boqadi. Hikoyalardagi ona obrazi esa juda sodda, juda beg`ubor. O`tgan asrning 50-yillari. O`g`il radiodan yomg`ir yog`ishi haqidagi xabarni eshitib qoladi. U tezda loysuvoq tomga narvon qo`yib, quritish uchun yoyilgan tutmayizlarni yig`ishtirishga tushadi. Ona esa o`g`lining bu darajadagi jonsarakligidan xayron. Tutmayizni nega yig`ishtirayotganini so`radi.

- Yomg`ir yog`armish, oyi.
- Qaerdan bilding, o`g`lim.
- Radio aytdi, oyi radio.

Onadagi taajjub baribir ketmaydi. O`g`il ulg`aydi. Bir kuni u ishga ketayotlsa, ona to`xtatib yomg`ir po`shni kiydirib qo`ymoqchi bo`ladi.

- Yomg`ir yog`armish, o`g`lim.
- Qaerdan bildingiz, oyi.
- Radio aytdi, bolam, radio aytdi.

Ushbu parchadan bilasizki, bir vaqtlar radio odamlar uchun yangilik bo`lgan kezlari. Ona uchun radio orqali ob – havoning aytilishi ishonib bo`lmaydigan hol. Ammo ona vaqt o`tgani sari radiodagi xabarlarga ko`nikadiyu ishga otlanayotgan o`g`liga yomg`ir daragini aytadi. Parchada engilgina yumor bor. Ammo bu orqali qalbi qaynoq, mehri tunganmas, ammo o`ta sodda o`zbek ayoli ko`z oldingizga keladi. Bu ayolning soddaligi orqali muallif onaning farzandi uchun qaydarajada mehribonligini ko`rsata olgan. Voqea bir qarashda oddiy, qalamga olishga arzimaydigandek tuyulsada, biroq muallif kundalik hayot lahzalarini tasvirlash bilan onadagi farzandga bo`lgan mehr uchqunlarini bera bilgan.

g) yor timsoli:

Muhabbat azal – azaldan shoirlar yuragiga ilhom solgan, hofizlar tilini biyron etgan, tinglovchilar yuragidagi hislarni olovlantirgan mavzulardan biridir. Aksar ijodkorlar muhabbatni ulug`laydigan she`rlari bilan adabiyot alamiga kirib keladilar, shoir sifatida taniladilar, boshqa mavzularda sevgini kuylaganchalik asarlar yozolmaydilar. Ular ishq kuychisi sifatida adabiyotda o`z ovozlari ega bo`lib qoladilar.

Nuriddin Boboxo`jayev she`riyatida ham sevgi mavzusidagi she`rlari talaygina. Yoshlikning sarxush anlari muhabbat bilan go`zal. Ko`ngildagi hammadan yashirilgan roz-bu muhabbat daftari. Bu daftardagi bitiklar faqat ko`ngil mulki. Uni o`qishga esa yolg`iz ma`shuqaning haq – huqiqi bor, xolos. U oshiq bragidan o`rin olgani uchun ham bu yurakka daxldor barcha narsalarni bishga xaqli:

Baxti bo`la barno qiz, dono so`zingga borman,
Obo bilan nur bo`lib yongan ko`zingga borman.
Shodlik bilan yuvilgan anor yuzingga borman,
Boshqachamas, dilorom, faqat o`zingga borman
Faqat o`zingga borman.¹

Oshiq tasavvuridagi barno aqli, iboli, quvnoq. Uning chehrasida shodlik aks etib turadi. Oshiq uning baxti bekasi bo`lishni istaydi. Uning ko`zlaridagi ibo nurlaridan qalbi shavqqa to`ladi. Uning uchun boshqa dildor kerk emas. Chunki oshiq nazarida ma`shuqaning fazilatlarini bisyor. Oshiq nima uchun aynan unga ko`ngli bog`langanini sharhlashdan. U ishq kuyida mast mustag`riq:

Sehringni bilmadim men, meni adoli aylar,
Bog`lab o`ylini senga, meni fidoii aylar,
Qalbim sening kuyingda yonib nidli aylar,
Shundan hamisha hargiz faqat o`zingga borman,
Faqat o`zingga borman.²

Muhabbatning har ko`ngilga simehmon bo`lishi bor gap. Uni har kim o`zicha tushunadi, o`zicha talqin etadi, o`zicha unga munosabat bildiradi. Kingadir u tunganmas baxt keltirsa,

¹ Бобохўжаев Н. Сғинсам отажоним. Наманган. Наманган нашриёти, 1994, 131 бет.

² Шу асар.

kimgadir adoqsiz hijron olib keladi. Shoir nazaridagi oshiq esa seva olganidan, ko`nglida ishq olovlanganidan o`zini baxtiyor his etadi:

Dilim bilgani – bilgan, u aslida adashmas,
Sen- bizga nola – afg'on bugunda hech yarashmas,
Lek oshiqona yonsam meni Majnun sanashmas,
Chunki hamisha, hargiz faqat o`zigga borman,
Faqat o`zingga borman.¹

Shoir sevikli dildorning tashqi go`zalligini emas, balki uning ichki dunyosini, undagi hayo, ibo, mehnatsevarlik hamda vafodorligini she`rda ifodalaydi. Uning aynan shunday fazilatlari uchun oshiq qalbini rom etganini misralarida aks ettiradi:

Ko`nglingiz to`q bo`lsin, o`sha sadoqat,
O`sha pokiza qalb, o`sha muyassar,
Sevgimizga zarra qilsam xiyonat,
Xor bo`lib o`layin, o`layin agar.²

Oshiq yorning har bir so`zidan, bosgan qadamidan, sirli qarashlaridan, mayin kulgularidan, sirli qarashlaridan ham fazilat axtaradi, go`zallik topadi. Uni bahorga ham, yulduzga ham, oyga ham qiyoslagusi kelmaydi:

Ba`zilarga o`xshab bahorga,
Yulduzlarga etmayin qiyos, chunki bahor etmas umrga,
Yulduzlarchi olisda, xolos.
Nigohingni tong deb atasam,
Bulut bossa yo`qotar xusn.
Yuzingmi deb anor silasam,
Bir mavzsumda so`lishi mumkin.³

Oshiq nazarida ma`shuqa na bahor, na tong, na anor, na oy. Uning go`zalligi mangu. Oshiq shu go`zallik uchun jonini belishga tayyor:

Sen esa yor, mangu go`zalsan,
Fasl ko`rib buzilmas xusning,
Ko`nglim sevgan toza g`azalsan,
Shuning uchun o`zim maftuning.

Shoir har ikki dilning pokiza hislarga to`la ekanini aytar ekan, bu tuyg`ular egalari hayotda hali yoshlik sururidan zavqqa to`la onlarini boshdan kechirayotganliklarini, bu xush vaqtlar davomli bo`lishini istaydi:

Jonim deya seni suyushim mumkin,
Jonimga jon bo`lib kirgansan, axir,
Hayotim demasdan ololmayman tin,
Hayotimga tot ham bergansan axir.⁴

Muallifning ma`shuqani misralardan ifodalash usuli mutlaqo o`zgacha. Uning nazarida tasvir etilayotgan qiz juda xurkak, juda ehtiyotkor:

Eshigingni yopmagil qattiq,
Kalitini solma shiddatkoro,
Izlab qalbdan joy oluncha ishq
Son-sanoqsiz imtihoni bor.⁵

Bu ehtiyotkorlik zamirida hayo, ibo, qizlarga yarashiq bo`lgan andisha yashirin. Bu ham muallif nazarida o`xshashi yo`q go`zalliudir. SHoir oshiv ahvolini tasvirlar ekan, uni faqat hayotni bir tomonlaman tushunuvchi, ham dunyoni tshla idrok etishga o`z g`o`r yigit emas.

¹ Шу асар.

² Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним, Наманган. “Наманган” нашриёти, 1994й, 119бет.

³ Шу асар.

⁴ Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним, Наманган. “Наманган” нашриёти, 1994й, 128бет.

⁵ Шу асар..

Balki yoshligi qiyinchiliklarda kechgan, insonni, uning mehnatini qadriga etuvchi oshiq obrazidir:

Yur dengizga, dilorom,
Havo gashtin suraylik
Roz aytishib ikkovlon
Qirg'oq bo`ylab yuraylik.
Yoshlik ham o`tib ketdi,
Ichgandayin oqqushlar,
Orzu bu tomon eltdi,
Ko`ngil dengini xushlar.¹

Shoir she`rlaridagi ko`pgina misralarda qizni dilorom deb nomlaydi. Bu aniq bir ayolning ismi emas. Shoir oshiq yurakka malham, orom berishini ko`zda tutgan holda uni dilorom deya ataydi:

Shunday payt qo`yma yolg'iz,
Men bilan yur, dilorom,
Sirdonim sen- u dengiz,
Ikkingizga dilim rom.²

Oshiqning dili pok, so`zilari samimiy. U o`zgalarni ham xuddi o`ziday ko`radi. Sevikli dildorni ham shunday tasavvur qiladi, unga bo`lgan munosabatini sodda dillik bilan ifodalaydi:

Qo`lingda gul ko`rib etsam iltijo,
Bir dona uzatib deding marhamat.
O`tli so`zingdami, gulingdami jo,
Shunchalar ibo-yu, shunchalar himmat.
Mehringning ramzi deb gulingni, lohar,
Uyim peshtoqiga taqab qo`yaman.
Sog`inch dilni o`rab qiymalasa gar,
Nodir xazinam deb boqib qo`yaman.³

¹ Шу асар.

² Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним, Наманган. “Наманган” нашриёти, 1994й, 122бет.

³ Шу асар.

II. BOB. IJODKOR ASARLARIDA eZGULIKNING QUYLANISHI

2.1. Nuriddin Boboxo`jayeв – samimiy do`stlik kuychisi

Nuriddin Boboxo`jayeв doimo adabiy jarayonlarda faol ishtirok etar, goh publitsistik maqola, goh ilmiy ma`ruza, goh kichik qatralar, goh she`rlar, goh yirik hajmli hikoyalari matbuotda e`lon qilinardi. Ustoz matbuot yuzini ko`rgan asarlarini ham qayta ishlashga moyil edi. U bu borada ko`proq hikoyalari qayta – qayta nazardan o`tkazar, buni bekorchilikdan emas, balki bildirgan fikr – mulohazalarni, tanqidlarni to`g`ri qabul qilib, ular orasidagi zarur jihatlar bilan asarni yanada yaxshilashga intilardi. Bu tariqa qayta yozilgan asarlar orasida she`rlar ham ko`p bo`lib, ular mavzusi turicha. Muallif faqat ayrimlarini nashr ettirgan. Qolganlari esa hamon meros sifatida o`z navbatini kutmoqda. Ayniqsa, do`stlik mavzusi ustoz tomonidan ko`p bora qalamga olingan. Bu tuyg`u haqida muallif ko`pgina mulohazalar bildirgan, misralarda uni ulug`lagan edi:

Do`stga do`st avj pardasida yozsa doston nima qildi,
Oshkor aylab dil g`uborin yutmasa qon nima qildi.¹
Yoki boshqa bir she`rida:
Bilaman har kimning o`z tashvishi bor,
Kor – nokor vajhidan bo`shab bo`lmaydi,
Intiqlik kifoya, tog` uyish bekor,
Do`stman degan bilan do`stlik to`lmaydi.
Ammo sen kutmagan do`st kirib kelsa,
Oddiy hol so`rasa misli bir dehqon,
Porlagan ko`zidan mehr to`kilsa
Tirilib ketarkan hatto chiqqan jon².

Do`stlik beg`ubor tuyg`u. Uning beg`uborligi ta`malardan, riyodan xoliligi bilan o`lchanadi. Oraga ta`ma yoki aldov aralashsa do`stlikka putur etadi. Garchand odamlari qalbidagi do`stlik kuchini o`lchaydigan turli – tuman mezonlar bo`lmasa-da, dil yaqinligi, dunyoqarashlarning shzaro mosligi, hamdard bo`la olish layoqati, sodiqlik, o`zaro ishonch va ana shu ishonchga sazovorlik, xurmatga loyqlik, mehribonlik, yurak tozaligi – do`stlikning asosiy shartlaridir.

Shoir Nuriddin Boboxo`jayeв hamisha samimiylilikni ulug`lab kelgan. Ayniqsa, do`st haqida, uning beqiyos fazilatlarini to`g`risida kuylaganda buni yaqqol sezamiz:

Kechgacha tinglabsan, tinglabsan ajab,
Sha`nimga aytilgan bo`htonlarni jim.
Qandoq toqat qildi sendagi asab
Nahot bilmay qolding do`st kim dushman kim.³

Do`st o`zining oshnasiga bildirgan tuhmatlariga loqayd qaragani lirik qahramon yuragida g`azab uyg`otadi. U o`z sha`ni, or – nomusi uchun do`sti biror fikr bildirmaganidan qattiq ranjiydi. Agar shunday hol o`zi bilan sodir bo`lganida:

Birov senga loy otsa, tosh otsa qasddan,
Qo`shmoqlik istasa umringga zahar,
Javobsiz ketmayman, ketmasman senday,
Do`st dema vulqonday otillasam gar.⁴

Do`st yuragidan kir axtarish, undan kamchilik topishni shoir to`g`ri emas deydi. Uning nazarida kamchiliksiz inson yo`q. Do`st borasida ham shoir huddi shunday fikrda. Demak, do`st bo`lish uchun ideal odam topish amri mahol. Ammo do`st bo`la olish, uni avaylab saqlash uchun esa sadoqat deb atalmish fazilat juda – juda zarur. Bevafo, hiyonatkor do`stdan oshkora dushman afzal. Ijodkor do`stning boyligi, amali, chessiz qudrati uchungina bog`langan rishtalarni tama`rishtalari deydi. Bunday qadrdonlik boylik, amal qo`ldan kelsa, uzlib ketishiga ishonadi. Uning

¹ Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним – Наманган: “Наманган”наш.1994й. 60 б.

² Шу асар.

³ Бобоҳўжаев Н. Соғинсам отажоним – Наманган: “Наманган”наш.1994й. 57 б.

⁴ Шу асар.

nazdida haqiqiy do`stlik beg`araz, ko`ngillar yaqinligi, bir – biri o`zaro tushunishdan hosil bo`ladi:

Do`st bo`lsang chin yurakdan notanish begona do`st,
Sohib ul olamga do`stdir, do`sti yo`q devona do`st.¹

Shoir nazarida do`stlik ham insonga berilgan ne`matlardan biridir. Ammo kimdir bu ne`matni xor aylasa, kimdir avaylab – asraydi. Ming afsuski, biz ko`pincha buni bila turib qadrlamaymiz yoki o`z manfaatimiz yo`lida xudbinlik botqog`idan chiqa olmaymiz. Shoir satlarida samimiy do`stning eng pokiza obrazlari ifodalanadi:

Do`stni do`st deb bilmasang gar,
Tanda bu jon nima qildi.²

Ijodkor asarlariga bugunning nuqtai nazari bilan yondashar ekanmiz, biz uning samimiyat va muruvvat, do`stlik va qadrdonlik, odamiylik va ezgulik singari fazilatlarini ulug`lovchi misralari eskirmaganligining shohidi bo`lamiz. Demak, bu misralar bugungi kunda ham o`z ahamiyati yo`qotgan emas.

Nuriddin Boboxo`jayevning kichik qatralarida, katta hajmli hikoyalarida, ayrim maqolalarida, ko`proq she`rlarida ushbu tuyg`u to`g`risida mushohada yurgizdi. Uning asarlari bilan tanishar ekanmiz, chin do`stlik, samimiylik, yaxshi va yomon kunlaringda qalbi tug`yon urgan, boshingga og`ir tashvish kelganda sidqidildan qayg`ura olgan insoniy qalb sohibi ko`z o`ngimizda gavdalanadi. Do`stlikni tantana-yu dabdabalar belgilamaydi. Do`stlik hayotning kundalik turmushidan, har kungi diydorlashuvdan, bir mayizni baham ko`ra olishdan boshlanadi:

Ikki do`st turarkan elkama –elka,
Tog`larni ham oson aylaydi tilka.

degan edi buyuk so`z san`atkori Abdulqosim Firdavsiy. Chin do`st ham, soxta do`st ham o`z faoliyati bilan seziladi. Shu sababli ham halqimizda “Mol do`sting boshqayu, jon do`sting boshqa” degan pur-hikmat naql bor. Nuriddin Boboxo`jayev asarlaridagi qahramon o`z do`stining fikri bilan qiziqadi, uning intilishlarini qadrlaydi, undagi nuqsonlarni bartaraf etishda yordamini ayamaydi. Muammolarni birgalikda hal etadi. Bu do`st sheriklarini behudaga maqtamaydi, unga sohta laganbardorlik qilmaydp, kamchiliklarini yashirmaydi. Oilasida, yaqinlari davrasida do`stini o`zidan bir pog`ona yuqori tutadi. O`zining hohish va istaklaridan do`stning manfaatlarini baland qo`yadi. Yozuvchi asarlaridagi do`st timsoli tarbiya ko`rgan, ancha bama`ni, yuqori saviyali, ammo qaysidir oliygohni tugatgan emas. Ammo hayotda oz bo`lsada, do`st topolmay yurganlar ham uchraydi. Ularning mezonlari o`ta qattiq va talabchan. Ularga faqat o`ziga egiladigan, mute, hamisha qo`l qovushtirib turadigan do`stlar kerak. Lekin bunda o`zaro tenglik rishtalari yo`q. Bunday shartlar bilan albatta do`stlikka erishib bo`lmaydi. Nuriddin Boboxo`jayev qahramonlarining yaxshi va yomonligi ularning nutqida, harakatlarida seziladi. Ijodkor qalb qiyofasini tashqi qiyofaga qarama – qarshi qo`ymaydi. Ustoz nazarida odamlarga qauerlik ekaniga qarab emas, balki kim ekanligiga qarab baho berish to`g`rirog` bo`lardi. Insonning ko`pchilikka etkazayotgan nafiga qarab bilish lozimligiga etibor qaratadi muallif. Hikoyalarda qahramonlar kayfiyati ham asar muvaffaqiyatida sezilarli o`rin tutadi. Har bir qahramono`z ichki dunyosiga, odamlarga, jamiyatga bo`lgan o`z shaxsiy mulohazalariga ega. Bu qahramonlar, avvalo, o`z muhiti farzandlaridir. Ular mavjud voqealikka baho berar ekanlar, shu muhit nuqtai nazaridan masalaga yondoshadilar. O`z hulqlari bilan bizga o`sha paytdagi odamlar qanday bo`lgani haqida qimmatli ma`lumotlar beradilar. Shu o`rinda muhtaram olimimiz Ozod SHarafiddinovning quyidagi mulohazalarini o`rinli deb bildik: “Inson o`zi tanlagan hayot yo`lidan adashmay o`tishi uchun ilk qadamlaridanoq yuksak ma`naviy mezonlarga amal qilishi, ularni dog` tushurmay pok saqlash” kerak. Ular odam uchun eng muqaddas narsalardir. Ulardan cheknish yoki ularga hiyonat qilish odamga og`ir iztiroblar, mushkul musibatlar keltiradi”.³

¹ Бобохўжаев Н. Соғинсам отажоним – Наманган: “Наманган”наш.1994й. 59 бет.

² Шу асар 60 бет.

³ Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. Тошкент: “Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат” нашриёти. 1976 йил, 98-бет.

Biz bu gaplar do'stlik haqida ketayotganligi, do'stlikday ulug' tuyg'uni mensimaslik, unda aldov, makr, riyo aralashtirish insonga tuzatib bo'lmas kulfatlar keltirishiga adabiy asarlarda ham, hayotda ham ko'p bora shohid bo'lganmiz.

2.2. Nasriy asarlarida qahramonning ma'naviy qiyofasi

Ustoz o'z qahramonlarining aqliga emas, ko'proq ahloqiy jihatlariga e'tibor qaratadi. U hoh chekka qishloqlagi o'tov oldida kuv qilayotgan momo, hoh oliygoh talabasi, hoh qishloq muallimi, dorilfunun olimi, umrini uy yumushlari bilan kechirgan ona, hoh oq xalatli shifokor, kim bo'lmasin, avvalo, insoniy qiyofaga ega. Bu qiyofalarning qalbi o'ziga hos, daryodil, eng asosiysi, o'zbek halqining ko'pgina fazilatlarini bo'rtib, bilinib turadigan kishilardir. Nasriy asarlarda qahramonning ma'naviy qiyofasi.

Ustoz hikoyalari orasida kichik hajmlilari ham, yiriklari ham talaygina. Biroq gap hajmda emas. Hikoya orqali ijodkorning o'quvchiga aytadigan, gapi hususida, asarning asosiy mazmunidan voqealar kechishidan tashqari, uning g'oyaviy mazmuni haqida. Albatta, qahramonlarining ruhiy tasviri, ularning kechayotgan voqealardagi ishtirokisiz bunga erishish mumkin emas. Ijodkor hikoyalarda asosiy diqqatini qahramonning qalb kechinmalariga qaratadi. Buni biz "Armon" deb atalmish asarda ko'rishimiz mumkin:

"Bir kuni ishdan kelsam, darvozamiz oldida meni kutib o'ltiradigan dadam yo'qlar. Ariq bo'yidagi behining tagida ham, ayvon ustuni oldidagi supachada ham. Dahlizdan kirmasim danoq uy ichidan o'ntoq eshitildi.

- Ha,balli, keldingmi? Men ... tashvishdaydim, hayriyat..."

O'g'il bemor otaga bir necha kun qaraydi. To'plangan qarindoshlar – urug'lar ham ota holidan yaxshi xabar oladilar. Biroq o'g'il otasini shu darajada mehr bilan yaxshi ko'radiki, otaning so'nggi nafaslarida so'ragan anor sharbatini ichira olmagan yuragida cheksiz armon bo'lib qoladi. Dasturxonning bir chetida turgan anorni siqib suvni piyolaga tomizgunicha, otaning so'nggi nafaslarini uzuladi. Biz hikoya orqali yaxshi tarbiya ko'rgan farzand siymosini, o'g'lini ishdan kelishini har kech sog'inib kutadigan nuroniy ota timsolini ko'ramiz. Oddiy xonadon, ariq bo'yidagi behilar shig'il – shig'il bo'lib shohlarini eggancha turibdi. Ota esa bu manzaraga ortiqcha e'tibor bermay o'g'lini kutayotir. Insoniy dardni, mehr rishtalarini oddiy tasvirlar orqali ifodalagan nosir katta umulashmalar yasashga qodir. Uning qahramonlari hayotning kundalik oqimida ekanlar biror lahza bo'lsin odamiylikdan chekinmaydilar.

Ustozning "Ikki dunyolik xazina" nomli hikoyasi bunga yaxshi misol bo'la oladi. Asar qahramoni kichik tashkilot hodimi Murodolim. Uning otasi ham onasi ham ancha yoshga borib qolishgan. Ukasi hamda singlisi gektar olib, birisi boshqa tumanda, narigisi undan uzoqda. Har ikkovining qilar ishi dehqonchilik yugur – yugurlari bilan bo'lib, na ukasidan, na singlisidan xabar ololmaydi. Bunga ham rosa ikki oy bo'libdi. U aka sifatida ini va singlisini uncha sog'inmas, lekin ota har kun o'g'lini farzandlarini ko'rib kelishga chorlaydi. Axiyri, Murolim mashinasiga benzin topadi. Qog'oz xaltalarni bozorlik go'sht va boshqalar bilan to'ldiradi. U ota istagini bajarishi uchun astoydil xarakat qiladi. Qizini va nabiralarini, so'ngra boshqa tumandagi o'g'lini, uning bolalarini ko'rgan, tinchligidan quvongan, sog'inchi arigan keksa ota bilan onasining kayfiyati chog' edi.

O'g'il esa loaqal shu yumushi bilan ota hamda onasiga bir chimdim hursandchilik hadya etolganidan o'zida yo'q shod. U o'sha kuni ikki dunyolik xazinaga ega bo'ladi. U otasini quchoqlaganida uning bir oz kichrayib borayotganini sezadiyu muallif bu holatni quyidagicha tasvirlaydi:

"... ilgari shanba quchoqshlashganida etlari qochishib qolganday tuyuldi. Yoshlari ham, axir ... Pul yo'q desang – yo'q, bor desang – bor! Fursatingchi? Bu ham huddi pulday gap! Ish joyingdan kechagi otaning o'g'lidan qaqshab gapirganini eshitding. Besh oydan buyon ko'rmas, emish! O'g'il esa to'rtta ulfat bilan: "ha-ha-ha!, hu-hu-hu!". Ha, sen qabob go'shtini tishing bilan sixidan tortib, chaynab, mazasini shimiyotganingda otang, yo onang jon berayotgan bo'lsa, yo alhazar!".

Muallif hikoya orqali yana bir jihatga e'tiborni qaratadi:

"Dunyoda ne yomon, qay alam zilroq?"

- Visol ko`rishmasdan jondan ayrilmoq!.

Farzandlar otani, onani sog'inmasligi mumkin. Lekin har qanday ota yoki ona yomon farzandlarini ham sog'inadilar. Ular yo'lida intiq bo'ladilar. Hikoya qahramoni Murodolim otasi va onasiga ukasi va singlisini ko'rsatib kela olganidan bag'oyat shod. Mammun holda mashinasini bir maromda haydab kelar. U o'sha kuni ikki dunyolik xazinaga – ota hamda ona duosiga ega bo'lganidan baxtiyor edi.

Nuriddin Boboxo`jayev nasrda lo`ndalikka, jumlar ixchamligiga ko`proq e`tibor qaratadi. Har bir kichik voqealardan katta xulosalar chiqarishga intiladi. U hikoya, qatralarida hayotni o`ta murakkab holda tasvirlamasa ham, qahramonlarning o`y – hayollari, ichki dunyolari inson ruhiyatining xilma – xil jihatlarini ifodalay oladi. Shu tariqa ruhiyat va voqealar qo`llash o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni kuzatishimiz, qahramonlar fe`l – atvoridagi turlicha qirralarga guvoh bo`lishimiz mumkin. Bu esa asarning jonli tarzda, o`qimishli, qiziqarli chiqishga imkon beradi. Ammo ba`zan o`ta silliq, jumalarning haddan ziyod ixchamligi asar qahramoni ruhiyatiga soya solganday tuyulsa-da, bu umumiy holatga ta`sir qilmaydi.

Asarning qolgan yutuqlari oldida ba`zi kamchiliklari bo`lishi tabiiy va bu kitobxonning qiziqishiga unchalik ta`sir o`tkazmaydi.

Biz ustoz she`rlarini ko`rib chiqqanimizda qobil o`g`il obrazining she`rdan she`rga ko`rib yurganiga ishonch hosil qilgan edikyu Ijodkorning hikoyalarida ham biz ana shu jihatning guvohiga aylanamiz. Garchand ayrim hikoyalarida o`g`lini o`ta sog`ingan, uning diydoriga tashna ota timsoli uchrasada, ko`pgina hikoyalaridagi farzand nafaqat otasini balki onasi hamda singillari og`irlini engil qiluvchi odam sifatida qiyofalanadi. Ustoz fikricha, hayot faqat salbiy bo`yoqlardan iborat emas. Nur hamisha zulmatdan, qorong`ulikdan ustun bo`lgan. Faqat yozuvchi ana shu nurni ko`ra bilsa bas. Nuriddin Boboxo`jayev tirnoq tagidan kir qidirshni, zamondoshlari ichidan salbiy qahramonni lupa bilan izlab yurishni yoqtirmas edilar. Ammo bu inson do`ppi keltirish o`rniga bosh kesib keluvchilardan ham nafratlanar edilar. Hikoyalarining biri huddi shu mazmunda. O`sha davr ruhiyatidan kelib chiqib yozilgan bu asarda halqimiz ulug`langan. Bizning odatlarimizni eskilik sarqiti, diniy mahdudlik deya biluvchilar qoralangan. Asar qahramoni maktab direktori, partiya a`zosi. Asqarali aka. Uning o`g`li tug`ulgan kuni otasining vafoti sanasidir. Shu sabab u ertalab qabristonni ziyorat qiladi. So`ng o`g`lining tug`ilgan kunini nishonlaydi. Bu uning uchun bir necha yillar mobaynida odatga aylanadi. Ittifoqo, kunlarning birida o`sha sana arafaga to`g`ri kelib qoladi. Ma`lumki, arafa kuni ko`pchilik qabriston ziyoratiga chiqishgan. Rosa dahriylik avj olgan paytlar. Hayit – arafada kimlar qabristonga chiqayotgan bo`lsa, ayovsiz jazolanar, partiyadan o`chirilib, vazifasidan olib tashlanar edi. Asqarali akada ham shunday bo`ladi. Uni maktab direktorligidan haydab, a`zolikdan o`chiradilar. Yillar o`tib, bu voqealar odamlarga ahamiyatsiz tuyulishi mumkin. Lekin bu nohaq ayblangan, otasi hamda farzandiga sadoqati uchun jazolangan Asqarali akaga ahamiyatsiz emas. Muallif voqealardan qilib chiqib, asarga “Sadoqat” deb nom bergan.

Inson hayoti murakkab jarayonlar ichida kechadi. Dushman hech qachon osmondan tushmaydi. Odam bir – biriga yov yoki bir – biriga suyanchiq bo`lishi mumkin. Demak, hayotni chigallashtiradiganlar ham odamlarning o`zlaridir. Hayot hech qachon insonlarga guldastalar tutib turmaydi. Shoir G`afur G`ulom ta`biri bilan aytganda: “G`oyibdan kelajak baxt bir afsona”. Turmush qiyinchiliklarini engish uchun katta sabot, matonat kerak. Bu sabot – matonat zamirida insonni tushuna olish yotadi. Agar insonlar bir – birilarini tushuna olishsa edi. Olamda munosabatlar o`rtasidagi muammolarga barham berilgan bo`larmidi?

Muallifning “Onaginam” hikoyasi ana shunday taqdirlar haqida. Ulardagi keng fe`llik to`g`risida. Yomonlik ko`rgan odamlarni kechirishi haqida. Darhaqiqat, kechirimlilik oliy janob insonlarga xos fazilat. Bu xislatga ega bo`lish uchun faqat pokiza qalb va yuksak sahovat sohibi bo`lmoq kerak. To`rt bolaning onasi to`satdan vafot etadi. er ma`lum vaqt bolalariga qaraydi. Onasi, akalari, ukasi uni yana uylantirib qo`yadilar. O`gay ona ham to`rt bolani o`z qaramog`iga oladi. Vaqt o`tgani sari o`gayning shang`iligi, na akalarning, na ukaning va na muloyim va beozor onani mensimasligi ayon bo`ladi. U o`ta janjalkash bo`lib, ovozi etti hovlini tutar, nafas qisim dardiga chalingan, urushi yaradori bo`lmish er ham chorasiz edilar. Nizolar kuchayib,

o`gay kelining otasi nufuzli idorada ishlayotgan ukaning boshlig`igacha arz qilib boradi. Boshliqning o`ta vazminligidan janjal alangasi anchagina pasayadi. Kunlarning birida anchagina quyulib qolgan o`gay ona keksayib qolgan qaynonani ko`rgani kiradi.

Kelinoyisi bilan chiqisha olmagan uka boqqa o`tib qo`ylar bilan tillashayotgan edi. Uka kelinoyisini, o`sha “shang`i, urushqoq” ayolni kuzatib qo`yolmaganidan onasiga afsus bildiradi. U kelgan kim bo`lmasin, avvalo, onajonisining mehmoni ekanini aytib, uni kuzatib qo`yishga burchliligini ta`kidlaydi. Ukaning kechirimligi, yuragida kek saqlamasligi o`quvchida unga nisbatan hurmat uyg`otadi.

Nuriddin Boboxo`jayev, avvalo, muallim edilar. Uzoq yillar mobaynida Namangan Davlat Universitetida adabiyotdan yoshlarga saboq berdilar.

Bu haqda taniqli shoir Yoqubjon Axmadjonov quyidagicha hotirlaydi:

“Domla atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov rahbarliklarida ilmiy ish qilayotgan vaqtlarida o`z ustozlarini muayyan muddatga dars o`tishlari uchun dorilfununimizga olib keldilar. Biz Nuriddin akaning ezgulikka yo`g`rilgan bu sa`y – harakatlari tufayli bir ulkan adabiyot bilimdonining ma`ruzalarini tinglab saboq oldik Ozod akaning darslariga faqat biz talabalar emas, Namanganda o`qib ijod qilayotgan ko`plab qalamkashlar ham kirib o`ltirishgan edi.”¹

Yuqoridagi misoldan ko`rinib turibdiki, domla pedagog sha`ni, uning obro`si doimo yuksak bo`lishini istagan. Hikoyalarida ham chinakam fidoiy muallimlarni uyg`lagan edi. Ular qalamga olingan asarlar ko`p bo`lsada “ Kechiring meni ustoz” sarlavhali hikoya alohida diqqatga sazovor. Hikoyada oddiy qishloq muallimining mashaqqatli, biroq sharaflı mehnati ulug`lanadi.

Hikoyaning yozilish tarihi ham juda qiziq. Kunlarning birida yozuvchi O`tkir Hoshimov ustozning hikoyalari bilan tanishadi.

Nasr ustasi O`tkir Hoshimovga uncha – muncha asarlar yoqavermas, u o`ziga yoqmagan ijodkorga kamchiliklarini dangal aytishni odat qilgan edi. Ammo Nuriddin Boboho`jaevning hikoya, qatralari unga ma`qul keladi. O`tkir Hoshimov o`zining yuragida anchadan buyon tugilib yotgan, biroq yoza olmayotgan bir voqeani so`zlab beradi: “Men necha bor yozishga chog`landim, biroq qalamim yurmadi. Shuni bir yozib ko`rmaysizmi, chiroyli narsa bo`lardı,” – deydi u. U aytgan syujet unchalik pishitilmagan, unga hali anchayin detalar zarur edi. Shu o`rinda ozgina chekinish qilsak. Nuriddin Boboho`jaevni ko`pchilik hurmat qilar, u viloyatimizning qaysi tumaniga bormasin, albatta, qaysidir shogirdiga duch kelar, uning ta`limini olganlar ustozga alohida mehr ko`rsatar edilar.

Hikoyada ham salbiy qahramon yo`q. ikkita inson – ustoz va shogirdning bir – biriga bo`lgan munosabati oddiygina lavhalarda berilgan holos. Asar voqeasi maktublardan boshlanadi:

“Assalomu alaykum, Sheramat aka! O`sha kuni dadamlar bilan yarim kechgacha kutdik. ertasiga ham. Kelmadingiz. Dadamlar ...”

Mana shu oddiy xat asar qahramoni bo`lmish taniqli rassomni o`yga toldiradi. Uni hayolan bolaligi o`tgan qishloqqa etaklaydi. Uning ko`nglidagi hislari “nari olib borib beri olib keldi”. Shu bir kichik xat tufayli biz qahramon, o`qigan maktab chog`lariga qaytamiz: “Domla ikkinchi – uchinchi sinfda o`qitgan. Ovozi ingichka, o`zi oriq, bo`yi pastak. Pakana domla deb atar edik. Domla eshitarmidi, yo`qmi, indamasdi. Bir kun uyda dadamlarga:

- Men Rafiqovda o`qiyman deb turib oldim. Nega? – deb so`rganlarida – o`zimni domlam pakana-yu – dedim. Dadam kulgularini to`htatib: - Undoq dema, o`g`lim. Yaxshimas. Odamning chiroyiyam, bo`yiyam, dilida bo`ladi. Domlang juda yaxshi odam, – dedilar.

Bari bir ko`rsam jig`iga tekkim kelardi. Biror dars yo`qki, men tinch o`tirgan bo`lsam”.

Biz hikoya qahramoni Sheramatning o`ta to`polonchi, biroq juda qobiliyatli bola ekanligini ko`ramiz. U o`z o`qituvchisini pisand qilmaydi. Uni “pakana domla” deb kamsitadi. Uy, qushlar, ayvon oldida turgan pak-pakana odam rasmini chizib, unga “pakana domla” deb chizib qo`ydi. Domla bu rasmni olib, bolalarga uylar, qushlarni maqtaydi, rasm kamchiligini

¹ Бобоҳўжаев. У. Соғинчдан ёрилган анорлар – Наманган: “Наманган” нашр. 2009-йил. 35-бет.

ko`rsatadi. Biroq pakana odam haqida lom-mim demaydi. Har gal Shermat sho`xlik qilganda esa, uni bag`rikenglik bilan kechiradi. Uni o`ziga yaqin oladi. Kelajakda katta rassom bo`lishini ko`p uqtiradi. Doska ancha baland bo`lib, domlani bo`yi uning tepasidagi narsaga etmas edi. Shermat quvlik qilib, bo`rni doskaning tepasiga qo`yib qo`ydi. Domla hijolatpazlikdan oson qutiladi. U Shermatni chaqirib uni ko`tarib turadi. Bo`rni olib yozishni boshlaydi. Biroq bu o`tkinchi holatlar edi. Bir kuni: “Maktabimizning katta bog`i bor. O`riklari ko`p. Nozimlarning tashqisi maktab bog`iga bir devor. O`rikning egik shohlari Nozimlar tomonida. G`oralari kattagina bo`lib qolgan edi. Darsdan keyin Nozim ikkimiz g`o`raga ustma – ust tosh otdik. Domla bog`da ekanlar. Tepadan tushganmi, yondan borib tekkanmi, domlani ko`zlaridan o`q chaqnatib yuboribdi. Shov – shuv. Bir zumda mashina kelib, domlani kasalxonaga olib ketdi. Nozim ikkimiz bir – birimizga hayron qolgandek.”

Bola garchi hatoga yo`l qo`ygan bo`lsa-da, buni hech kim bilishini istamaydi. U o`rtog`i bilan buni qattiq yashirishadi. Uning orzusi bo`lgan novcha muallim darsga kira boshlaydi. Ammo u o`ta beshafqatligi bilan Shermatga ham, bolalarga ham zarracha yoqmaydi. Bolalar endi nafaslarini yutganicha darsda o`tirishga majbur edilar. Ulardagi qiziqish ham bora – bora so`nadi. Pakana domlani sog`ina boshlashadi. Ana shu sog`inch Nozim bilan Shermatni kasalxonaga etaklaydi. Uzoq surishtiruvlar tugagan, domlaga kim tosh otgani hali hanuz topilmagan edi. Biroq ustoz qoshida – uni ko`zi bog`liq holda ko`rib – ular ayblarini tan oladilar:

“Ko`zlari oq bint bilan bog`langan domlam, karavotlarida huddi tasbeh o`g`irgandek, bosh barmoqlarini o`ynab o`tirgan ekanlar. Yuragim orqaga tortib ketdi. Sharpamizdan sergak tortib, biz tomon qaraganlaricha o`rindan turdilar. Salom berishim bilan nomimni aytib mahakam quchoqlab oldilar. O`pkam to`lib ketdi. Yig`laganman-u, ammo hech qachon bunaqa yig`lmaganman. Domlani yig`laganlarini titragan tovushlaridan bildim.

- Domla, o`sha toshni men otganman men !!!

Domlam horib qolganday jim tingladilar. Nozim ham chidolmadi.

- Yo`q, yo`q, men otganman. Men otgan tosh tekkan sizga.

Domlam ikkimizni bag`riga qattiqroq bosdi. Chekayotgan sovuq sukunat daqiqalarni yutyapti. Vodoprovodning berkitilmay qolgan jo`mragidan tushayotgan suvning sharrosi derazadan shundoq eshitilib turibdi. Devor tomonga o`g`irilib olgan bemor nafassiz qotib qolgan odamday bizga qaraganicha kiprik qoqmay yotibi. Har ikkimizning boshimizda iliq qo`l kezdi. Peshonamizdan o`pa turib:

- Yo`q, yig`lamanglar. Bu – falokat. Mengamas, o`rikka otgansizlar, to`g`rimi? Buning uchun hech kim aybdormas. Dunyo silliq bo`lsa dunyoligini yo`qotadi...”

Voqealar jarayonidan ko`rinib turibdiki, domla g`oyatda bag`rikenglik bilan shogirdlarning hatosini kechiradi. Ular qilgan qilmishini - bolalik hatolaridan biri deb hisoblayi. Buni oddiy falokatga yo`yadi. Bu hodisada hechkimni aybor hisoblamaydi. Tabiiyki, vaqtlar o`tadi. Hikoya qahramoni Shermat ulg`yib, respublikaga taniqli rassom bo`lib etishadi. Tasodif sabab u o`z qishlog`iga borib qoladi. Ustozi holidan habar oladi. Ammo choy ichganiga ham ko`nmay, ish bilan qo`shni tumanga o`tib ketadi. Qaytishda albatta kirishini – mehmon bo`lishini aytadi. Biroq safar tig`izligi bunga yo`l qo`ymaydi. Hikoya xat bilan boshlangan edi. O`sha hatnig davomi yana hikoyani yakunlab beradi. Domla xatni o`g`liga yozdirgan edi:

“Dadamlar uxlamay chiqdilar, sizni juda yaxshi ko`rar ekanlar. O`t yigit. Mening o`t – olov shogirdlarimdan “, - dedilar. Sizni juda yaxshi ko`rar ekanlar. ertasiga ham ko`cha eshikdan beri kelmadilar.

Darvoqe, kelasiz deb, so`ygan qo`yimiznig qornidan ikkita bolasi chiqdi...”

Hikoyadan mahzunlik, qahramon dilidagi bir oz hijillik asar ohirigacha o`z kuchini yo`qotmaydi. Undagi armon – shogirdning ustoziga bo`lgan ehtiromi, hurmati ramzi.

To`g`ri, u bir vaqtlar ustozini mensimaydi, kalaka qiladi. Lekin ulg`ayish saboqlari uning yuragida ustoziga nisbatan cheksiz mehr uyg`ota oldi. Bolaning odam tanishida, qalbida ezgu hislar kamol topishida ustozni xizmatlari hikoyada o`ta nozik holda ifodalanadi. Hayotni bu darajada idrok etish, ustoz – shogird munsabatlarini bu tahlit ifodalash uchun maktab ta`limi jarayonlari muallimlar fe`l – atvorini chuqur bilish talab etiladi.

Hikoyada muallif asosiy e'tiborini qahramonning ruhiy holatiga qaratadi. Uning ichki kechinmalari asosiy e'tiborda bo'ladi. Bolaga hos fikrlash, sho'xligini jasoratga yo'yish tuyg'ulari ishonarli tasvirlar orqali beriladi. Pakana domlaning mulohazakorligi, o'ta bosiqliqi, uning beg'uborligi, bola olamini keng tushuna bilishi ko'pgina muallimlarimizdagi sifat ekaniga o'quvchi amin bo'ladi. Asar so'ngida shogird qo'lga qalam olishga, o'zi o'qigan hatga javob yozishga majbur bo'ladi. U xatni "Kechiring meni ustoz" deb boshlaydi. Undagi sof tuyg'ularni sezgan o'quvchi hech qachon Shermatni qilgan ayblari uchun qoralashga asos topa olmaydi. Muallif yomon sho'x boladan yaxshi inson yasay olgan muallim mehnatini, ishonarli tarzda yoritgan.

Umuman, muallif ijodining ko'p jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asar qahramoni ruhiy tasviridagi hayotiylik, tabiiylikka o'ta masuliyat bilan yondashganligiga guvoh bo'lamiz. Bu mas'uliyat muallifning o'quvchi oldidagi, o'zining mashhur, el tan olgan ustozlar oldidagi bevosita vazifasi edi. U qahramon ruhiy dunyosi, ichki tabiatida zarracha sun'iylikka, jo'n va sohtalikka yo'l qo'ysa, o'zi sevgan, bilgan, ozmi – ko'pmi anglab etgan adabiyotga nisbatan kechirilmas hato qilgan bo'lar edi. Nuriddin Boboho'jaev asarlaridagi rang - barang qahramonlarning har biri jonli, huddi hayotda bordek, yashayotgandek go'yo." Ularning ta'bi, tabiati, kechinmalari muallif tomonidan ancha chuqur ifodalangan. Bu harakat zamirida muallifni qiziqtirgan, o'ylatdirgan insoniy munosabatlar, ziddiyatlar, voqeiyliklar ko'lam aks etadi. Keyinchlik muallif o'z qarashlarini "Farzandlarimga aytganlarim", "Dilimdagi chiroqlar"da ham ifodalaydi, Ayniqsa, uning bitiklaridagi fikrlarida barcha asarlardagi falsafiy ruh davom etayotgandek. Bunda muallifning uzoq vaqt hayotiy kuzatishlari, ko'rgan – bilganlari, hulosalari jamlanganki, bunday fikrlarni biz aksariyat ijodkorlarning adabiy merosida uchratamiz. Ularning dunyo qarashlaridagi mana shu jihat barcha uchun birdek qiziqarli bo'lishi tabiiy. Shulardan ayrimlarini, bizningcha, tilga olsak arziydi:

- Qanoti bo'lgani bilan ari aslo qush emas.
- O'zing yutug'ingdan quvonish oson, o'zganing yutug'i bilan quvonish katta baht.
- Uzangidan ham tushibdi.
- Mehnat o'lirmaydi kishini, gap o'ldiradi.
- O'qituvchi bo'lib ishlash uchun bilim va iqtidordan tashqari tog'day yurak, olamcha mehr, havas qilgulik odob kerak.
- Kamtarlik yaxshi fazilat, ammo uni hokisorlikka aylantirmaslik kerak.
- Dil nozik, bemor dil undan ham.
- Oshkora hakimdan pinhona dard afzal.
- Eng yuvosh mol ham tashna bo'lsa maraydi.
- Ota nazari buyuk, el nazari undan-da buyuk.
- Qurimaydigan soy, tinmagan bo'ron yo'q.¹

Muallifning o'ziga hos falsafasi ifodalangan ushbu gaplar hech qanday sharhga muhtoj emas. U ijodkornig hayot tajribasi natijasida qog'oz yuzini ko'rgan namunalar desak adashmagan bo'lamiz.

¹ Бобоҳўжаев. Н. Дилимдаги чироқлар – Наманган: "Наманган" нашриёти 1998-йил. 24-бет.

III. BOB. IJODKORNING O`ZIGA XOS MAHORATI

3.1. Nuriddin Boboxo`jayeв – dramaturg

O`zbek dramaturgiyasining rivoji ko`pchilikka ma`lum. Bu dramaturgiyaning shoh asarlarini jahon miqyosida ham e`tirof etishgan. Dramaturgiya nafaqat markaz – Toshkentda, boshqa viloyatlarda ham o`zining o`rniga ega bo`lishi kerak edi. Shu sababli yurtimiz viloyatlari teatrlariga iste`dodli aktyorlar, taniqli rejissyorlar, qalami o`tkir dramaturglar zarur edi.

Ma`lumki, dramaturgiyaning yuksalishi faqat teatr, aktyor va rejissyorgagina bog`liq zarur. Bu esa Toshkentdagina emas, balki viloyatlardagi ijodkorlar zimmasiga ham katta mas`uliyat yuklaydi va ularning baland saviyali asar yozishlarini talab qiladi. Ochig`ini aytadigan bo`lsak, o`tgan asrning 70 yillarida viloyatimizdagi dramaturglar juda kam edi. Boborahim Mashrab haqida p`esa yozgan Aziz Tursun olamdan o`tgan. Yosh ijodkorlarning asarlari ham sahna yuzini ko`rgan emas edi. Janr murakkabligidami, yo boshqa sabablar bormidi, har qalay faqat drama bilan shug`ullanadigan ijodkorlar o`tgan asrning 70 yillarigacha Namangan shahrida yo`q ekanligi ham bizni hayron qoldiradi. Bu bo`shliqni keyinchalik Abdulla Jabbor, Habib Sa`dullalar to`ldirishgagina ham diqqatga sazovordir. Ular o`sha paytda Namanganda teatr san`ati rivoji uchun jonkuyar ijodkorlar bo`lishdi desam xato qilmagan bo`lamiz.

Nuriddin Boboxo`jayeв ham ko`pgina dramatik asarlar muhokamasida faol ishtirok etadigan safidan bo`lgani, qolaversa, bungacha ham kichik sahna asarlarlari mashq qilib yurgani bois 1974 yili 2 - jahon urushi mavzusida “O`zing ko`zim nuri” nomli asar yozdi. O`sha yillardagi qoidaga ko`ra drama Toshkentda muhokamadan o`tish, badiiy kengash uni biror teart sahnasida qo`yish uchun ruhsat berishi lozim edi. Buning uchun oylab, ishni ham yig`itirib qo`yib, markazga Toshkentga borish talab qo`ymadi. Dam olish ta`tilida hamda ishdan (tashqarida) bo`sh paytlarini Toshkentda o`tkazadi. Har holda uning sa`i – harakatlari bekor ketmadi. O`sha paytda taniqli shoir va kinodraturni bo`lgan Turob To`la boshchiligidagi badiiy kengash asarni sahnaga qo`yishga tavsiya etdi.

Namangan teatrning o`ziga hos tarixi, shuhrati va o`rni bor mamlakatimizda shu sababli Nuriddin Boboxo`jayeв “O`zing ko`zim nuri”ni aynan Namanganda qo`yilishini eng maqbul varianti deb bildi.

Asar 1975 yili – fashizm ustidan qozonilgan g`alabani 30 yilligiga bag`ishlab sahnalashtirildi. Shundan bilish mumkinki, drama mavzusi 2 jahon urushi, bu urushning millionlab insonlar qalbiga etkazgan og`ir jarohatlari to`g`risida. Yillar ham kelgani sari davolab bo`lmayotgan ayriliq, hijron sog`inch draqlari haqida. Urush tufayli ushalmay qolgan orzular, o`z yurtidan uzoqqa dafn etilgan qon – qardoshlari, ko`zlarida yosh bilan yorini jangohlarga – bevosita o`lim changaliga kuzatgan bevlara, otasi diydorini bir umr ko`rishga zor bo`lgan bolalar to`g`risida. Mashhur avar shoir Rasul Hamzatov aytganidek:

Mening nazarimda qonli janglarda,
Yurtiga qaytmagan el farzandlari,
Ona tuproqqa bosh qo`ygan erlarda,
Oppoq turnalarga aylangan bari.¹

Nuriddin Boboxo`jayeвning ko`pgina yaqinlari urush dahshatlarini boshdan kechirishgan. Bu jarohatlar unga ham begona emas edi. U drama mavzuni iloji boricha hayotga yaqin holda berishga intildi. Qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, hatti – harakatlarini o`sha davr ruhiyatidan kelib chiqqan holda tasvirlashga intildi. Dramada birorta ham keraksiz, voqealar zanjiridan uzilib qolgan personaj bo`lmasligiga e`tibor qaratdi. Asarning bosh qahramoni bo`lishni orzu qilardi. Ammo urush tufayli jangohga ketib ikki ko`zidan ayriladi. Brayl alifbosini, ya`ni ko`zi ojizlar uchun o`ylab topilgan alifboni o`rganadi. O`qib, izlanadi. Meditsina fanlari doktori, professor darajasiga ko`tariladi. U urushga jo`nayotgan paytda sevgan yori Munavvar “Umrbod kutaman”, - deya va`da bergan edi. Urush tugaydi. Muzaffarning yuziga sachragan oskolka parchalari ko`zini ko`r qilib qo`yadi. Betida sanovsiz chandiqlar hosil qiladi.

¹ Э.Воҳидов. Келажакдан мактуб. Тошкент, “Ёш гвардия” нашриёти. 1981, 54 бет.

Muzaffar shu holatda yurtiga – qadrdon qishlog'iga qaytishni istamaydi. U yurtdan uzoqda – bor hayotini ilmiy ishlarga bag'ishlaydi. Lekin uning yuragida ana qishlog'iga, yoriga, o'z yaqinlariga bo'lgan sog'inch limmolim. Ana shu sog'inch urush tugagandan so'ng 10 yil o'tgach, uni tug'ilib o'sgan yoriga etaklaydi. U odamlarga meditsina bo'icha ilmiy – ommabop ma'ruza o'qish uchun yuboriladi. Yonida esa uni etaklab olib yuruvchi rus qizi. U qoq tush paytida – hamma daladaligida – qadrdon ko'chasini, bog' eshik devorlarini, eshik zulfinini ohista – ohista siladi. Bolalik chog'larini esga oladi. Xayolan qishloq ko'chalari bo'ylab kezadi. Beg'ubor damlarini xotirlaydi. Ammo ming afsuski u paytlari qaytarishga iloj yo'q. Muzaffar bir – biriga qarama – qarshi hislar qurshovida. ertaga u zaldan yaqinlari, onasi, otasi, aga kutayotgan bo'lsa, sevimli yorini garchand ko'rmasada, ovozini eshitadi. Ularning savollariga javob beradi. Tomoshabin ushbu holni ko'rar ekan, bosh qahramonni zarracha ayblamaydi, aksincha, unga rahmi keladi. Uning tuyg'ularini beg'uborligiga shubha qilmaydi. Muzaffarga nisbatan tomoshabin yuragida hayrihohlik, hamdardlik barobarida achinish ham hosil bo'ladi. SHU o'rinda dramaturg lirik chekinishdan juda o'rinli foydalanadi: U Muzaffarning ayni 18 yoshdagi holati, sevimli yori Munavvar bilan birga kechgan damlarini ifodalaydi. Shu tasvirga bir oz e'tiborni qaratsak, o'rik gullariga g'arq bog'. Bog' shu darajada maftunkorki, har qanday insonda cheksiz zavq uyg'otadi. Shunday diyorda tug'ilganidan odam yuragi iftihorga to'ladi. Anna shub oda oxirgi marta Munavvar va Muzaffar gaplashgan. Bu ikki yoshning orzu-umidlarining cheki yo'q edi. Ammo boshlanib ketgan mudhish urush tufayli o'rtaga ayriliq tushadi. Muzaffar Vatan himoyasiga otlanadi. O'sha holatning o'zi bizga tinchlikning naqadar ulug' ne'mat ekanini, uni qadriga etish burchimizga aylanshi kerakligini eslatadi. Muallif tinch bog' Bilan suronli urush dahshatlarini Muzaffarning ichki kechinmalari orqali ishonarli tarzda bera olgach. U har bir detalni, har bir kichik voqeani o'rinli, asar mohiyatini ochishga xizmat qildirgan. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlashni istar edikki u ham bo'lsa drama bosh qahramoni Muzaffarning xulq – atvori, o'ziga xosligi, qalb tuyg'ularining uning xatti xarakterlarida namoyon bo'lishi. Avvalo, Muzaffar - urish qahramoni. Hayot yo'li jasoratga to'la. Ona – Vatani uchun, xalqi uchun fidoyi. Lekin shunisi ham borki, u kim bo'lgan taqdirida ham avvalo inson. Odamga xos bo'lgan tuyg'ular, yutuq va kam chilkardan xoli emas. Shuning uchun u ikki ko'zidan ajralganda qattiq tushkunlikka tushadi. Chuqur iztirob chekadi. Hatto hayotdan bezadi. Uzini o'zi o'ldirishni o'ylay boshlaydi. Biroq xamxonalarini biri ikki oyoqsiz, biri qo'lsiz yaradorlar unga alda beradilar. Inson irodasi, matonati Bilan insoniy qiyofaga ega ekanligini tushuntiradilar. Har kun, xar safar Muzaffardagi Inson irodasi, matonati Bilan insoniy qiyofaga ega ekanligini tushuntiradilar. Har kun, xar safar Muzaffardagi tushkun kayfiyatni o'qotishga tirishadilar. Shu bilan birga ular o'zlarini ham yupatmoqda, o'z ko'ngillarini ko'tarmoqda, ruhiy dalda bermoqda , o'z ko'ngillarini ko'tarmoqda, ruhiy dala bermoqda edilar. Maib majruhliklariga qaramay ular kelajakka kata umid Bilan boqadilar. Hayotda yana o'z o'rinlarini topishlariga, birovlariga tirik tovon bo'lmasliklariga ishonadilar. Bu umidni esa Muzaffarga ham yuqtira oladilar. Shu orada Brayya alifbosi haqia eshitib qoladi. Bu alifbo ko'rlar uchun o'lab topilgan maxsus o'quv quroli ekani uni hayotga qaytarishga ko'maklashadi. U endi yoshlikdagi orzularini amalga oshirish uchun ishonch Bilan, yuragida so'nmas olob bilan ishga kirishadi. Butun mamlakat tan oladigan nazariyotchi darajasiga erishadi. Muallif fikricha, insonni qo'ldan yuqorigacha ko'taraigan fazilatlardan biri, shubhasiz, uning mentin irodasi. Ana shu iroda tufayli Muzaffar tirik qoladi. Hayotga, odamlar orasiga qaytdi. Muallif qahramonning ruhiy tasvirida zarracha ham soxta balandparvozlik, quruq hayqiraqlar, hayotdan uzilib qolish, kitobiylik kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaydi. Muzaffar timsolini tabii ravishda ifodalashga harakat qiladi. Muzaffardagi barcha ijobiyy jihatlar uning chinakam inson ekanida, yaqinlari, ota –nasi tug'ilib o'sgan kishlog'iga bo'lgan mehrida namoyon bo'ladi. Muallif II jahon urushidan maib – majruh qaytgan minglab urush nogironlari hayot o'lini, o'y-xayollarini, intilishlarni, orzu-umidlari, xayotga qarashlarini – muzaffar timsolida bera olganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Muallif nazarida har bir urush nogironi urishga qarshi aybnomadir. Lekin bu insonlardagi metan iroda ularning nogironlikdagi qiinchiliklarni engishda juda katta madad bo'ldi. Tog'day g'amni engish uchun unday insinlar xamisha o'zlarida kuch topa bildilar. Shoir Abdulla oripov aytganidek:

Oshga etganida yigitning dasti,
Sen inson tayanchi, sen bashar baxti,
Ey buyuk iroda, tuzim bilmas jon.
Nelarni ko`rmagay insonning boshi,
Necha bor qovrilib, tirilgan jaxon.
Bariga etarkan sabru bardosh,
Demak, irodadan yaralgan inson.¹

Dramaning bosh qahramoni Muzaffar dastlab irodasi bo`sh igit sifatida namoyon bo`ladi. Ammo hayot sinovlarini kuchaytirgani sari Muzaffarning ichki dunyosi to`la ochila boradi. Undagi orzu – niyatning ro`yobga chiqishi uchun ko`zining ko`rmasligi katta to`siq edi. Shu sababli Muzaffarning ziyoli kishi bo`lishi, olim sifatida tan olinishi uchun u qattiq mehnat qilishi kerak edi. Muzaffar hayotda nafaqat olim balki inson bo`lib yashay olgani bilan baxtlidir. Biz bugungi tinch, dorilomon kunlar nazari bilan “O`zing ko`zim nuri” dramasi baho berar ekanmiz, asardagi umidbaxsh tuyg`ularga, inson qalbidagi hissiyotlar ifodasiga, ularning samimiyligiga katta qiziqish bilan yondashamiz. Nazarimizda, “O`zing ko`zim nuri” umidbaxsh tug`ular ramzid tuyuladi bizga. Muzaffarni hayotga qaytargan omillardan yana biri – vafodorlik, safoqat. Ma`lumki, II jahon urushi yillarida beva qolgan ko`plab o`zbek ayyollari umrbod yorini kutadilar. Ulardagi sadoqat tillarda doston bo`ldi. SHE`ru qo`shiqlarga aylandi. Ana shunday qizlardan biri – munavvar. U Muzaffarning sevgilisi. Garchi muzaffarning bedarak ketganini bilsada, ammo uning bir kunmas bir kun kirib kelishga ishonadi. U yillar davomida shu ishonch bilan yashadi. Muallif ayol zotining eng yaxshi fazilati – uning sadoqati, vafosi degan xulosa ifodalaydi. Biz Munavvar simosida minglab o`zbek ayollarining ulug`lanishini ko`ramiz. Asar so`ngida Munavvarning orzulari ushaladi. U Muzaffarni topadi. Uzoq yillik hijronga baram berladi. Sevin ko`z yoshlari, kuvonch qahramonlarning yillab chekkan zahmatlari uchun mukofotdek go`yo II jahon urush g`alaba bilan tugaganidek, drama qahramonlari urush qoldirgan jarohatlar, qayg`ular, asoratlar ustian g`alaba qiladilar. Garchi Muzaffarning ko`zi ojiz bo`lsada, u Munavvar uchun ilohi timsoldek. Urushdan so`ng qurilgan minglab oilalardagi erlar qo`lsiz, oyoqsi, majruh edilar. Sabr – toqatli ayollar ularning boriga ko`ndilar, shukr qildilar. Ular bilan bir yostiqa bosh qo`yib, bola – chaqali bo`ldilar. Shoir Abdulla Oripov ayol sadoqati haqida:

Shu cho`lpon ko`zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so`zi deya,
So`ylang-chi, vafoning nadir qimmatini,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!
Hatto zeb-ziyatni yulqib ziyola,
Haykal ham qo`ingiz bamisli xayol.
Shundaylar bo`lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muxtaram bo`lmasdi ayol.²

deb yozgan edi. “O`zing ko`zim nuri” dagi munavvar bosh qahramon – Muzaffarning soyasida qolib ketmaydi. Balki, iroda, sabr – toqat bobida undan zarra ham qolishmaydi. Uning harakatlarida, yurish turishida ajib soddalik, ajabtovur go`zallikni muallif chiroyli ifodalay bilgan. O`sha 1975 yilli “O`zing ko`zim nuri” asariga ko`pgina tanqidchilar yuqori baho berdilar. G`alabani 30-yilligiga bag`ishlangan dramalar tanlovida u I darajali diplom bilan taqdirlandi. Shu o`rinda muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning II jahon urushi va unda xalok bo`lgan yurtdoshlarimiz to`g`risidagi quyidagi fikrlarini eslab o`tsak: “....Ana shu maydonlarda barpo etilgan yodgorlik majmualarida II jahon urushida halok bo`lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus ishlangan lavhalarga zarhal harflar bilan yozib qo`yilgani, ular haqidagi ma`lumotlar nomlangan 35 jilddan iborat “Xotira” kitobi chop etilgani, aytish mumkinki, mamlakatimizda tarixida ma`naviy voqea bo`ldi”.³

¹Орипов А. Ўйиллар армони. Тошкент. “Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1984 й, 302-б.

²Орипов А. Ўйиллар армони Тошкент “Ғофур Ғулум номидаги Адабиёт ва санът” нашриёти 1984 и. 308 б.

³ www.nuu.uz

Darhaqiqat, baxtimiz, tinchligimiz, kelajak hayot uchun kurashganlar xotirasi doimo avlodlar yodidan o`chmaydi. Shuning uchun ham “O`zing ko`zim nuri” dramasi bugungi kunda ham o`ziga xos va mos bo`lgan qadr – qimmatga ega. Asar qahramonlarining akrasariyati esa biz uchun o`rnak bo`larli fazilarlarni o`zida jamul – jam insonlardir. Bu qahramonlar bizningcha, faraf shohsupasiga loyiq bo`lgan odamlar safidadirlar.

3.2. “Madaminbek”dramasida ilgari surilgan g`oyalar

Yurtimiz mustaqillikka erishgach biz bosib o`tgan yo`limizga, eng asosiysi, tariximizda o`zimiz turli tarixiy voqealarga endi o`zining haqiqiy, to`g`ri munosabatini bildira oldi. Bu haqiqiy, baholar zamirida tariximizdagi turli “oq dog”larga barham berildi. Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida yurtimizda amalga oshirilgan buyuk ishlar qatorida tariximizni, milliy marosimizni qayta tiklangani ham ijodkorlar uchun imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayniqsa, XX asrning 30 yillarida davom etgan milliy ozodlik harakati to`g`risida turli baxs – munozaralar bildirildi. 1994 yil A.Boboxo`jayev “Madanimbek” nomli tarixiy dramasini yozib tamomladi. Asar Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatrida sahnalashtirildi. Drama, shubhasiz, turli adabiyotshunoslar, san`atshunoslar e`tiboridan chetda qolmadi. Lekin gap bunda emas. Ma`lumki, sobiq tuzumda XX asrning 20 yillaridagi milliy – ozodlik harakatiga faqat bir tomonlama yondashildi. O`sha davrning naqadar murakkab ekani, sho`rolar tuzumini barcha birdek qabul qilolmaganidan ko`z yumildi. Xalq manfaatini himoya qilganlar ham tirikchilik uchun bosqinchilik qilib yurganlar qatoriga qo`shib qo`yildi. Hatto o`shalar qatori ularga ham “bosmachi” degan tamg`a bosildi. Natijada yosh avlod haqiqiy bosmachi bilan halqi uchun kurashganlarni tanimay qoldi. Tarixiy murakkablikdan ochiqdan - ochiq ko`z yumildi.

“Madaminbek” dramasida muallif XX asrning 20 yillaridagi o`zaro qirg`in – barot janglari mohiyatini ochib berishga intildi. Bu o`rinda u tarixiy shaxslardan biri – Madaminbek boshchiligidagi ozodlik harakatning vujudga kelish tarixi, rivojlanishi va barbod bo`lishini aks ettiradi. Dramadagi qahramonlarning aksariyati hayotiy shaxslar bo`lib, muallifdan anchayin izlanish talab qilingan. Chunki tarixiy shaxslarning xulq – atvori, qiyofasi, haraktlarini buzib tasvirlar bo`lmaydi. Shuning uchun dramaturg asar yozish jarayonida tarix fanlari doktori, professor Ibrohim Karimovdan ko`pgina ma`lumotlar, qimmatli maslahatlarni oldi. Hatto sahnalashtirish jarayonida ham Ibrohim Karimov bir necha bor Namanganga tashrif buyurishdan erinmadi. Bu esa asarda ifoda etilayotgan voqealarning ancha jonli, haqqoniy chiqishga katta yordam berdi desak adashmagan bo`lamiz.

Dramaning bosh qahramoni – Madaminbek. U oddiygina xunarmand oila farzandi. Yoshligida uning otasi yo`qsillik vajidan uni boygga xizmatkorlikka berishga majbur bo`lgan. Uning onggi, dunyoqarashi boy xonadonidagi muhitda shakllangan. Madaminbek uchun oddiy xalq manfaatidan afjalroq manfaat yo`q va bo`lishi ham mumkin emas. Yoshligidan ancha – muncha qiyinchiliklarini boshidan kechirgan, adolatsizliklarni ko`rgan, hayot sinovlarida tob`langan Madaminbekda jasurlik, yovqurlik, kurashga intiluvchanlik uchtun, uning har bir harakatida xulq – atvoridagi barcha jihatlar seziladi. Qolaversa, Madanimbekda tashkilotchilik, chuqur mulohaza, asablar dosh berolmaydigan holatlarda ham bosqlikni erganshtira olish xususiyatiga ega. U niyati shuki, kindik qoni to`kilgan yurtini ozod va obod ko`rishni hohlaydi. Xalq hayotini yaxshilash, tubdan o`zgartirishni o`z oldiga oliy janob maqsadning naqadar xatarli ekani, o`lim bilan aslo cho`chimaydi. Undagi dovyuraklikka hatto atrofida gilar ham havas qiladilar. Bu dovyurakli xo`ja ko`rsinga emas. Hayot qiyinchiliklari uni ana shu taxlit tarbiyalangan, ana shunday voyaga etganu. Biz Madaminbek siymosida o`sha davrning kurashlarida chiniqqan, hech narsadan cho`chimaydigan farzandini ko`ramiz. Olovli yillarning asarning odami edi u. Muallif iloji boricha asarning haqqoniyligicha asosiy e`tiborni qaratir ekan. Madanimbekning ko`pgina xatolaridan, adashtirishlaridan ko`z yummay ketolmadi. Uning kamchiliklarini ham asarda ro`yrost ko`rsatib beradi. Muallif ushbu dramada o`sha suronli damlarning bor murakkabliklarini ifodalar ekan, qahramonlarning davr shiddati, kurashlar ziddiyatini qaydarajada qabul qila olishlariga e`tiborni qaratadi. Mana shu e`t iborda qahramonlarning ruhiy qiyofalari namoyon bo`ladi. Ularning xulq – atvori voqealar silsilasida

ochilib boradi. Dramaturg albatta janr imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tarixiy jarayonni imkon qadar bo'yamasdan berishga intiladi.

Drama qahramonlaridagi umumiy bir xususiyat shundaki, ular taqdirining og'ir fojellarida ham o'zlarini tuta bildilar, insoniy fazilatlarini yo'qotmaydilar. Aksincha, sinovlardan chiqib, keta oladilar. Ularning obrazini yaratar ekan, muallif birinchi navbatda bu qahramonlardagi yaxshi fazilatlariga alohida urg'u beradi. Ushbu qahramonlarning chinakam insoniy qiyofada qolishlarini istaydi.

Nuriddin Boboxo'jayev dramaturgiyaga birdan kirib kelgani yo'q. U avval kichik sahna asarlarini yozdi. Biroq bularni hech qaerda sahnalashtirishga bermadi. Shunchaki ijod mashqlari deb bildi. Drama janrining butun murakkabliklarini sinchkovlik bilan o'rgandi. Biror og'iz ham gapirmaydigan, faqat harakatlari yordamida o'zining kim ekanligini, salbiy yoki ijobiy qahramonga mansubligini ko'rsatib berdi. Muallif dramaturgiyadagi harakatlari uyg'unligi voqea jarayoniga mutanosib bo'lishini ham ta'minlay olgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, Nuriddin Boboxo'jayev dramalari badiiy tahlil uchun arziydigan asarlar qatoriga kiradi desak qolishmagan bo'lamiz.

3.3. Nuriddin Boboxo'jayev zamondoshlari ta'rifida

Nuriddin Boboxo'jaev ijodiga Alixon Halilbekov, Habib Sa'dulla juda yaxshi ta'riflar berishgan. Bular muallif ijodini ayrim qirralarini yoritishda o'ziga hos ahamiyatga ega. Bu muallif mehnatiga yaxshi berilgan bahodir:

“Nuriddin Boboxo'jaev asarlari otashin mehr harorati, ezgulikni elga ulashgisi, olamni mehr – muhabbati bilan quchgisi keladi. Undagi mehrni ko'lam keng daryo va inson mehri ona va otaga mehr, ustozlarga mehr, yorga, do'stlarga mehr... turli jabhalarga oid bo'lsada bular bir biriga payvand bir butun yahlit “Qalblarning qaynoqligi, insonlar inoqliigi, diyor bergan sadoqat”ni dildan tarannum etuvchi mayin hususiyatli mehr taronalari ular:

Mehr bilan she'riy nihol yaratib,

Abadiy qoldirsam degan orzum bor.

deydi shoir va o'z ijodiy faoliyatida, unga amal qiladi. Badiiyat gulshanida nihollar parvarishlar ekan, adib “Vatanim, xalqimga sadoqatligimning ramzi bo'lib o'ssa, fasl tanlamay,” – deya umid qiladi. Uning e'tiqodicha: “El mehridan, sevgisidan ortiq ne baht bor”. Bular taniqli adabiyotshunos olim, professor Alixon Halilbekovning Nuriddin Boboxo'jaev ijodi yuzasidan bildirgan fikrlari. Bunday hulosalar talaygina. Lekin O'zbekiston xalq shoiri Xabib Sa'dulla ham masalaga shoirona baho beradi.

“Nuriddin Boboxo'jaev! Bu mo'tabar nomni Namangan adabiy – ijodiy jarayonining qirq yillik tarixidan, shaxsan o'zinning taqdirimdan, menga tengdosh va bizdan yoshroq qalakashlarning ijodiy taqdiridan ayri holda tasavvur qila olmayman”.¹

Darhaqiqat ustoz – shoirimiz Xabib Sa'dulla, Nuriddin Boboxo'jaev haqlarida bildirgan fikrlari, shogirdning dil so'zlari desak hato qilmagan bo'lamiz. Qolaversa, asarlardagi inson ruhiyati ta'sirining haqqoniyligi kamchiliklarini o'ziga ham Xabib Sa'dullani qo'lga qalam olishga undagan bo'lsa ajab emas.

Biz muallif ijodiga inson ruhiyati ta'sirida qahramonning ichki dunyosini mukammal tadqiq qildik degan hulosadan yiroqmiz. Biz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, shoir, dramaturg, olim, filologiya fanlari nomzodi Nuriddin Boboxo'jaev ijodiy merosini keng va atroflicha tahlil qilish kelgusidagi maqsadlarimizdandir.

¹ Бобохўжаев. У. Соғинчдан ёрилган анорлар – Наманган: “Наманган” нашриёти 2009-йил 36-бет.

UMUMIY XULOSALAR

Viloyat adabiy muhitida kechayotgan jarayonlar, poytaxtdan uzoqda yashab ijod qilgan eng iste'dodli ijodkorlarning asarlarini o'rganish, tadqiq etish, targ'ib qilish, masalalari bo'yicha o'quvchiga keng hamda atroflicha ma'lumot berishni tutadigan asosiy maqsadimiz sifatida Namangan adabiy muhitning vakillaridan biri, XX asrning II yarmiga shoir, jurnalist, dramaturg – Nuriddin Boboxo'jayev qoldirgan adabiy meros haqida fikrlar bildirdik. Ma'lumki, har bir viloyatning hayoti o'ziga xos va rang - barang kechadi. Ana shu o'ziga xoslik adabiy jarayonlarda ham o'z aksini topadi. Shu sababli viloyat adabiy muhitini o'rganish, ulardagi asarlarni taxlil etish bizga o'sha viloyatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti haqida ham ko'p xulosalar chiqarishiga imkoniyat yaratadi.

Tarix saboqlaridan ma'lumki, har qanday jamiyatda, har qanday tuzumda adabiyot va san'atning o'ziga xos rivoji bo'ladi. Jumladan, XX asrning 60-80-yillarida ham Namangan adabiy muhitining o'ziga yarasha yuksalish jarayoni kechgan. O'sha davrning qadar o'z ulushlarini qo'shganlar. SHular orasida Namangan Davlat Univerisitetida uzoq yillar xizmat qilgan Nuriddin Boboxo'jayevning ham borligi quvonarli, albatta. Yuqoridagi tahlillarimizdan ko'rinadiki, Nuriddin Boboxo'jayev ijodi beiz, besamar ketmadi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Ijodkor nazm va nasrda, publitsistikada, dramaturgiyada qalam tebratib, o'z davri odamlarining dunyoqarashi, orzu-umidlari, tashvishlari, pokiza, insoniy qiyofasini, gullar shaxri bo'lmish Namanganning ajib tabiatini adabiyotga olib kirdi. Yoshlarda she'riyatga mehr uyg'otishga intildi. Adabiyotning eng ulug' vazifasi bo'lmish inson qalbini tadqiq etishdek yumushini chin dildan his eta bildi. Nuriddin Boboxo'jayev uchun adabiyot olami tabarruk va muqaddas edi. Bu olamdagi buyuk insonlarning merosiga u chuqur hurmat bilan qaraydi. U Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mavlono Lutfiy, Boborahim Mashrab, Moxlaroyim Nodira, Zokirjon Furqat, Muqimiy, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek, Zulfiya, Zafar Diyor va boshqa ijodkorlar asrlarini ilmiy tadqiq qildi. Respublika va viloyat gazetalarida ushbu maqolalarni e'lon qildi. Nuriddin Boboxo'jayev ijodida inson, uning yashash tarzi, bajargan ezgu amallari, o'z yaqinlari va xalqiga sadoqati o'ziga xos beg'uborlik va samimiyat bilan yoritildi. Uning she'rlarida biz nafaqat oddiy o'zbek kishisini, balki, ziyoli muallimning qalb kechinmalarini, dardu iztiroblarini, shodlik-quvonchlarini ham his etamiz.

Nuriddin Boboxo'jayev mavzu tanlar ekan, bu mavzudan kelib chiqadigan tarbiyaviy xulosaga o'quvchi diqqatini torta oladi. Shu tariqa she'rxon faqat tasvirlar, tabiat manzaralari, badiiy san'atlar, turli so'z o'yinlar ketidan quvmay, balki asosiy maqsad – ijodkorning o'z zamondoshlariga aytmqochi bo'lgan “gap”iga e'tiborni qaratadi. Nazarimizda Nuriddin Boboxo'jayev Mashrabning “Dilda darding bo'lmasa, dardu sarimni kavlama” degan purhikmat so'zlarini har doim yodda tutganidek tuyiladi. Bu jixat ijotkorning asarlarining hayotiyiligini ta'minlovchi me'zonga aylanadi. SHoir aksar she'rlarida uning nazarida odamiylik har qanday kishining bosh maqsadi, yashashning asosiy muddaosi bo'lmog'i kerak. Yo'qsa bir umr bekorga sarflanib, zoya ketgan bo'ladi. YANabir jixat shundan iboratki, ijodkor insoniy fazilatlar orasida, samimiyatni alohida holda boshqa hislatlardan ustun qo'yadi. Shoir ta'kidlaydiki, samimiyat dil bilan til birligidir. Agar insonning dili boshqa-yu, tili boshqa bo'lsa, demak, u samimiyatdan yiroq kimsa. elimiz orasida yaxshi fazilat – insonga ziynat degan hikmat bor. Ijodkor fikricha, fazilatlarining fazilati – bu samimiyatdir.

Ma'lumki, hech bir adbiy jarayon kurashlarsiz yutuq va kamchiliklarsiz, tekis va ravon kechmagan. Har qanday badiiy ijodda yuksalish ham, pasayish ham bo'lgan. Nuriddin Boboxo'jayevning adabiy merosini o'rganar ekanmiz aynan shuning shohidi bo'ldik. Shu sababli ham uning ijodini quyidagi davrlarga bo'lishni ma'qul topdik:

1. 1949 – 1959 – yillar.

Bu vaqtda ijodning boshlanish davri bo'lib, unda mumtoz adabiyotimiz vakillari haqida ilmiy maqolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Badiiy ijodning salmoqli qismi she'rlardan iborat.

2. 1959 – 1970 – yillar.

Turli rang – barang mavzulardagi she'rlar ko'proq yozilgan. XX asr ijodkorlarining hayoti va ijodiga doir maqolalar asosiy o'rinni egallaydi.

3. 1970 – 1980 – yillar.

Bu davrda nasriy asarlar – asosan hikoya, hajviya va ocherklar ko`p yozilgan. She`rlarda insonning odamiylik qiyofasi asosiy o`ringa ko`rilgan. “O`zing ko`zim nuri” dramasida yurt tinchligi qalamga olingan.

4. 1980 – 1990 – yillar.

Nasriy asarlar va she`rlar ijodda salmoqli o`rinni egallaydi. Asarlardagi tanqidiy ruh kuchaygan.

5. 1990 – 1999 – yillar.

Xotiralar, ocherklar, didaktik, bitiklar, fardlar va “Madaminbek” nomli drama yaratilgan.

Ushbu davrlashtirish nisbiy bo`lib, bu bizning o`z xulosalarimiz asosida bo`ldi. Shuning uchun nazarimizda muallif ijodidaga eng yuksalish davri 1959 – 1970 yillarni o`z ichiga oladi. Bu davrda ona Vatanni, ona tilini ulug`lovchi, mo`tabar va munis onani tarannum qiluvchi, nuroniy otaxonlarni kuylovchi, inson qalbidagi eng ezgu fazilatlarini ifodalovchi she`r va hikoyalar, dostonlar ko`proq yozilgan. eng asosiysi, bu asarlarning badiiy saviyasi boshqa yillardagi ancha baland va etukligi bilan e`tiborga molikdir. Yana shuni ham ta`kidlash lozimki, she`r yoki hikoya qahramonlari to`laqonli hamda hayotiyligi bilan o`quvchi qalbiga yaqinligi va kitobxonda mehr uyg`ata olishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, aynan o`sha yillar Namangan adabiy muhitida rivojlanish sari burilish yillari bo`lgannini boshqa ijodkorlar asarlaridan ham sezish qiyin emas. Ma`lumki, har qaysi davr kishilarining o`ziga xos ruhiyati, dunyo qarashi, jamiyatga, atrof muhitga munosabati bo`ladi. Muallif asarlarining asosida ana shu jihat etakchi o`rinda turadi. Asar qahramonining fikrlash tarzini ijodkor tabiiy holda berishni maqsad qiladi. Bu esa o`sha davr ruhini asarda to`g`ri ifodalashga bevosida ko`mak beradi. Muallif o`zining ijodiy faoliyati davrida o`zi yashagan zamon bilan bog`liq ravishda odamlar dilidagini, inson ruhiyatiga oid va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi masalalarni ifodalaydi. Insonparvarlik, o`z xalqiga nisbatan farzandlik burchini to`la – to`kis anglay bilish, haq yo`lida jasoratli bo`lish, insof va halollikni o`z xulq – atvoriga aylantira olish, sadoqatni, tinchlik hamda do`stlikni kuylash Nuriddin Boboxo`jayev ijodining bosh mezoniga aylandi desak to`g`ri xulosaga kelgan bo`lamiz. Nuriddin Boboxo`jayev she`rlaridagi ona, ota timsollari faqat shoirning shaxsiy hayotiga taaluqli bo`libgina qolmay, balki umumlashma obraz darajasiga ko`tarila olganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she`rlari quruq pand – nasixatlardan xoli xolda, yuksak insoniy fazilatlarini targ`ib etgani bilan e`tiborga sazovor. Muallif mazmunan boy, badiiy mukammal asarlar yozishni hech qachon yoddan chiqariladi. Buni shu bilan isbot qilamizki, xali uning bisotida e`lon qilingan qator nasriy asarlar va she`rlar talaygina. Surishtirganimizda muallif ushbu asarlar ham to`la qiyomiga etmaganligi uchungina vaqtli matbuotda bormagani ma`lum bo`ldi.

Shoir she`rlari kishilar qalbiga kirib boradi. She`riyatning dillarning qamrab oluvchi, to`lqinlantiruvchi hayajonlantiruvchi sehri, siri va kuchi nimada ekan?

Nuriddin Boboxo`jayevning mashaqqatli, ammo zavqbxash, xayotbxash ijod dardi bilan yaratgan satrlari, o`zi aytganidek: “Kimlarga tayanch-u, kimlarga g`uluv, kimlarga sarhad-u, kimlarga imon”.

“Mening ham bog`im bor, bir kirib o`ting, sarxil mevasidan tanlab eb o`tin,” – deb yozgan edi shoir. Ammo chin iste`dod egasining umri boqiydir.

Mirishkor adib ijod bog`ida etishtirgan sarxil, xushta`m, mevalardan el bahramand. Zero, yaxshidan bog` qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2011 y.
2. I.A.Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat- engilmas kuch”. Toshkent: “Ma`naviyat”, 2008
3. I.A.Karimov. Xalq ishonchi oliy mas`uliyat. Toshkent: – “O`zbekiston” nashriyoti, 2000 y. 225-bet.
4. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent: – “O`zbekiston” nashriyoti, 2000 y.
5. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 1996 y.
6. A.Navoiy. Xazoyinul – maoniy. Badoye`ul vasat. Toshkent: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1965 y.
7. A.Oripov. Yillar armoni. Toshkent: “G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at” nashriyoti. 1984 y.
8. A.Xalilbekov. Namangan adabiy gulshani. Namangan. “Namangan” nashriyoti 2007 y.
9. Boboxo`jayev N. Badiiy niyat va lirik ifoda. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1977 y
10. Boboxo`jayev N. Dilimdagi chiroqlar. Namangan. “Namangan” nashriyoti, 1998 y.
11. Boboxo`jayev N. Dorilfununim. Namangan. “Namangan” nashriyoti, 1994 y.
12. Boboxo`jayev N. Sog`insam otajonim. Namangan. “Namangan” nashriyoti, 1994 y.
13. Boboxo`jayev N. Umid niholi. “G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at” nashriyoti, 1976 y.
14. Boboxo`jayev N. Hamisha borim onajonim. Toshkent: “Kamalak” nashriyoti, 1994 y.
15. Boboxo`jayev U. Sog`inchdan yorilgay anorlar. Namangan. “Namangan” nashriyoti, 2009 y.
16. Vohidov e. Kelajakka maktub. “Kamalak” nashriyoti, 1988 y.
17. Zulfiya. She`rlar. Toshkent: – “G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at” nashriyoti, 1968 y.
18. Namangan navolari. Bayoz. Namangan. “Namangan” nashriyoti. 1997 y.
19. T.No`monov. Barhayot ustozlar. Namangan. “Namangan” nashriyoti 2002 y.
20. U.Nosir. Unutmas meni bog`im. Toshkent: “G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at” nashriyoti. 1988 y.
21. Sharofiddinov O. Iste`dod jilolari. Toshkent: – “G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at” nashriyoti, 1976 y.
22. www.Ziyonet.uz
23. www.nuu.uz
24. www.goll.uz

MUNDARIJA

Soʻz boshi	2
I. Bob. Nuriddin Boboxoʻjayev hayot yoʻli va ijodida lirik qahramon tasviri:	
1.1. Nuriddin Boboxoʻjayevning hayot yoʻli.....	8
1.2. Shoir sheʼrlarida lirik qahramon tasviri.....	17
a) ota timsoli.....	17
b) ona timsoli.....	29
v) ustoz timsoli.....	40
g) yor timsoli.....	45
II. Bob. Ijodkor asarlarida ezgulikning kuylanishi	
2.1 Nuriddin Boboxoʻjayev – samimiy doʻstlik kuychisi.....	49
2.2 Nasriy asarlarida qahramonning maʼnaviy qiyofasi.....	52
III. Bob. Ijodkorning oʻziga xos mahorati:	
3.1 Nuriddin Boboxoʻjayev – dramaturg.....	63
3.2 “Madaminbek”dramasida ilgari surilgan gʻoyalar.....	69
3.3 Nuriddin Boboxoʻjayev zamondoshlari taʼrifida.....	71
Umumiy xulosalar	73
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	77